



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2024-yil
10-aprel
chorshanba

№ 15 (4657)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

O'G'IL TANLAGAN YO'L



Sherzodbek Ishanxanov ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2005-yilda Andijon shahar IIB Navbatchilik qismi haydovchisi lavozimida boshlagan. Orada Andijon davlat universitetini sirtidan tamomlagan. Undagi xizmat qilish istagi viloyat «Dinamo» JTSJda qo'l jangi turi bilan shug'ullanish asnosida paydo bo'lgan.

Podpolkovnik Sh. Ishanxanov o'tgan yillar davomida Andijon shahar va viloyat IIBlarida turli lavozimlarda samarali xizmat qildi. 2023-yildan hozirga qadar viloyat IIB Tashkiliy boshqarmasining o'ta muhim ishlar bo'yicha inspektori lavozimida faoliyat olib bormoqda.

Lavhamiz qahramoni iste'fodagi polkovnik G'ulomjon Rahimov,

podpolkovniklar Valijon Bo'tayev, Sodiqjon Nishonov, Abdulla Zaidovni o'z ustozlari deb biladi. Shu bilan bir qatorda, o'zi ham mayorlar Faryoz Rahmonov, Muhiddin Zaynobiddinov, Shamshiddin Oripov kabi shogirdlariga yo'l-yo'riq ko'rsatib kelmoqda.

(Davomi 19-betda).

MUXBIRLARIMIZ XABAR QILADI

YURTGA SODIQLIK AHDI

Qurolli Kuchlar safida xizmat qilish har bir yigit hayotidagi haqiqiy sinov maktabi sanaladi. Bu yerda u har tomonlama chiqib, o'z kuchiga ishonch hosil qiladi, Vatan, oila qadrini yanada chuqurroq anglab yetadi. Mardlik, jasurlik kabi fazilatlar aynan shu jarayonda kamol topadi. Shu kunlarda IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli harbiy qismlarda yosh askarlarning Vatan oldidagi burchini halol va vijdonan o'tashga, Prezidentimiz va xalqimizga sodiq bo'lishga, mamlakatimiz mustaqilligi va daxlsizligini ko'z qorachig'idek asrashga, zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatli vazifalarni sadoqat bilan bajarishga qasamyod qilish bo'yicha tadbirlar bo'lib o'tmoqda.

Toshkent viloyati



IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7534 va 7535-harbiy qismlarida ham qasamyod qilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda so'z olgan Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, general-mayor Bahodir Mirzarahimov muddatli harbiy xizmatchilarga Vatanni himoya qilishdek mas'uliyatli vazifani sidqidildan bajarishida ulkan zafarlar tiladi.

Shuningdek, marosimda so'zga chiqqan mehmonlar ham yosh askarlarni hayotlaridagi ushbu unutilmas kun bilan samimiy tabriklashdi.

Qashqadaryo viloyati



Qarshi shahridagi 7533-harbiy qismida bo'lib o'tgan tadbirda Qorovul qo'shinlari qo'mondoni rahbariyati ishtirok etib, muddatli harbiy xizmatchilarni qutladi hamda ularning mashaqqatli va sharafli xizmatlarida ulkan zafarlar tiladi.

Tadbir so'ngida san'atkorlar tomonidan yangragan dilbar taronalar tantanaga yanada fayz bag'ishladi.



Toshkent shahri

Poytaxtimizda joylashgan 7531-harbiy qismda yigitlik burchini o'tash uchun kelgan yosh askarlar bilan Vatanga qasamyod qabul qilish marosimi bo'lib o'tdi.

Turli viloyatlardan kelgan muddatli harbiy xizmatchilarning otionalari va yaqinlari Vatan himoyachilariga yaratilgan maishiy-madaniy shart-sharoitlar bilan tanishishdi.



Buxoro viloyati

Qo'shirlarga qarashli 7536-harbiy qismda ham yangi chaqirilgan askarlarning Vatanga qasamyod qabul qilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tantanali marosimga Qorovul qo'shinlari qo'mondoni rahbariyati, viloyat hududida joylashgan kuch tuzulmalari komandirlari, harbiy prokuratura va JIEK xodimlari, harbiy qism faxriylar kengashi a'zolari tashrif buyurib, yangi askarlarni Vatanga qasamyod qabul qilgan kun bilan tabriklab, ularga sihat-salomatlik, kuch-g'ayrat, mashaqqatli hamda sharafli xizmatlariga ulkan zafarlar tilashdi.



YURT QO'RISANG, O'SARSAN

Denov tumani 1926-yil 2-sentabrda tashkil etilgan bo'lib, unda 417 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Tumanda 1 ta shahar, 2 ta shaharcha, 98 ta mahalla bor. Tabiati nihoyatda betakror tuman hududi sharqdan Bobotog', g'arbdan Boysuntog' tizmalari bilan o'ralgan.



Profilaktika inspektori, mayor Alisher Yusupov mahalla faollari bilan.

Tuman Ichki ishlar boshqarmasi xodimlari hududda jinoyatchilikni jilovlash, uning barvaqt oldini olish bo'yicha kun-u tun, fidoyilik bilan xizmat qilishmoqda. Shuningdek, qonun ustuvorligini ta'minlash va aholi

joylashtirildi. Ajrim yoqasida turgan 2 ta oila yarashirilib, nizoga barham berildi.

Hududda 230 ta kuzatuv kamerasi o'rnatilgan bo'lib, ular Milliy gvardiya-ning tuman bo'limi hamda tuman IIBga

integratsiya qilingan. Joriy yil boshidan beri mahallada birorta ham jinoyat sodir etilmadi.

Tuman IIB boshlig'ining ma'naviy-

ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, mayor Mansur Saidov shaxsiy tarkibning xizmat intizomga rioya qilishi, xodimlar ma'naviy va ma'rifiy bilimlarini oshirish, xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlarini namunalni tashkil etish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda. «Xodimbay» ishlash jaryonida xodimlarning oilaviy sharoiti, muammolari o'rganilib, ularga ijtimoiy yordam berilyapti.

Ayni paytda tumanda 200 ming nafardan ortiq xotin-qiz istiqomat qiladi. Shunga qaramay, tuman IIB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, kapitan Guljamol Elmurodova o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashgani holda, tazyiq va zo'ravonlikka uchrayotgan xotin-qizlarga huquqiy yordam ko'rsatishda faollik ko'rsatmoqda. Jumladan, joriy yilda xotin-qizlarga 77 ta himoya orderi berildi. 8 nafar xotin-qiz voyaga yetmagan farzandlari bilan birgalikda reabilitatsiya markaziga joylashtirilib, ularga ijtimoiy, psixologik yordam ko'rsatildi. Qolaversa,



Tuman IIB boshlig'ining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, mayor Mansur Saidov(o'ngda) xizmat paytida.

osoyishtaligini saqlash ham ularning zimmasida.

Tumandagi «Namozgoh» mahallasida 4 ming nafardan ortiq aholi yashaydi. Mahalla hududida «Baraka yashil olam» dehqon bozori va ko'plab savdo nuqtalari joylashgani bois aholi doim gavjum. Bu profilaktika inspektori, mayor Alisher Yusupovning zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uning sa'y-harakati bilan joriy yilning o'tgan uch oy ichida 2 nafar muqaddam sudlangan shaxsning xonadoniga issiqxona qurib berildi. Yana bir nafari savdo shoxobchasiga ishga



Leytenant O'rolbek Abdurahimov yosh, umidli xodimlardan biri.



Kapitan Guljamol Elmurodova.

maktablarda, oliy o'quv yurtida erta turmush va erta tug'uruqning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar o'tkazilib, joylarda «mahallabay» va «xonadonbay» tizimida suhbatlar tashkil etilmoqda.

Hududda sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishda tuman IIB huzuridagi Tergov bo'limi tergovchisi, leytenant O'rolbek Abdurahimov ham faollik ko'rsatmoqda. Ayniqsa, firibgarlik, bezorilik va o'g'rilik kabi jinoyatlar bo'yicha tergov ishlarini olib borgani holda, qonun ijrosini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Qolaversa, tumandagi mahallalarda, ta'lim muassasalarida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha Tergov bo'limi xodimlari tomonidan profilaktik tadbirlar, tushuntirish ishlari izchil tarzda olib borilmoqda.

Feruz RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Внутренний туризм

г. Ташкент



Сотрудники ГУВД города Ташкента посетили древний Хорезм.

Группа побывала в парке Джалолиддина Мангуберди в городе Ургенче. Затем отдыхающие направились в древнюю Хиву. В сопровождении гидов осмотрели ансамбль Ичан Кала, свидетельствующий о богатой истории края, его высокой культуре и духовности.

С большим интересом сотрудники ознакомились с такими известными объектами старины, как медресе Оллакулхана, Кутлуг Мурод Инока, Шергазихана, мавзолеей Пахлавана Махмуда.



Гиды, сопровождавшие их, подробно рассказали о каждой исторической достопримечательности.

Интерес у сотрудников вызвали колонны Джума-мечети, а из минарета Калта-минор можно было обозреть всю Хиву. Они также побывали в доме-музее народного хафиза Узбекистана Комилжона Отаниёзова. Дочь всенародно любимого деятеля искусства, Рохатой Отаниёзова, рассказала об экспонатах, жизни и деятельности отца, ответила на интересующие вопросы.

Соб. корр.

Сырдарьинская область

БЕЗГРАНИЧНЫЙ КЛАДЕЗЬ ЗНАНИЙ

Способность мыслить, анализировать, делать выводы, словом то, что называется мышлением, – это удивительный дар, возможности которого безграничны. Пищу для него мы получаем из окружающего нас мира. Обогащать наши представления помогает чтение книг.



Из них мы получаем сведения о странах, природных явлениях, свойствах материи, проникаем в тайны человеческой души. Книги – настоящий клад знаний. Благодарен судьбе, что приобщился к чтению с детства.

Однажды в школьной библиотеке в руки попала книга Александра Некрасова «Приключения капитана Врунгеля». Рассказы об удивительных похождениях трех мореплавателей на скромном судне буквально заморозили меня. На просторах водной стихии они подвергаются множеству испытаний, преодолевают трудности, становятся свидетелями удивительных явлений, знакомятся с жизнью разных народов, населяющих прибрежные страны. Перечитывая эти рассказы, я переносился в тот мир, с головой уходил в художественную реальность, созданную писателем. Затем познакомился

с не менее увлекательными «80 тысяч лье под водой» Жюль Верна и «Приключения Тома Сойера» Марка Твена.

Чтение книг позволяет, как бы, прожить жизнь главных героев, окунуться в их мир, сопереживать, испытать победы и поражения персонажей. Роман Абдуллы Кадыри «Минувшие дни» также оставил неизгладимое впечатление. Это настоящая энциклопедия жизни той эпохи, о которой рассказывает автор. В нем прославляются свойственные нашему народу качества, такие, как человечность, взаимопомощь, мужество. А отношения Отабека и Кумушбиби являются олицетворением самых возвышенных чувств, слухат гимном любви. После много раз наблюдал примеры из жизни, свидетельствующие о том, что наши современники не растеряли преданность Кумуш, мужество Отабека, искренность и простодушие Хасанали. Это очень отрадно.

В последнее время в стране большое внимание уделяется популяризации чтения, всемерно пропагандируются книги. В УВД Сырдарьинской области и его структурных подразделениях созданы библиотеки. Они располагают лучшими образцами классической и современной литературы.

В махалле Анорзор Баявутского района, где я занимаю должность инспектора профилактики, мы также создали свою небольшую библиотеку. Отрадно, что молодежь проявляет неподдельный интерес к чтению. Стараюсь подавать в этом личный пример. В нынешнем году я вновь стал победителем конкурса «Молодой книголюб», организованного областным УВД. Дело даже не в том, что стал победителем. Главное – хочу привлечь, приобщить к чтению как можно больше коллег, юношей и девушек. Пусть они с удовольствием пользуются кладом знаний, обогащающим наш духовный мир.

Мухаммад КАРШИБОЕВ,
старший лейтенант.



TANLOV G'OLIBLARI

KASBGA SADOQAT – MUVAFFAQIYAT OMILI

Hozirgi kunda Xiva tumani IIB JXX Probatsiya guruhi katta inspektori lavozimida xizmat qilayotgan kapitan Hamrobek Jumaniyozov yaqinda Toshkent shahrida o'tkazilgan «Namunali mahalla huquq-tartibot maskani» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida «Eng faol probatsiya xizmati inspektori» nominatsiyasi g'olibi, deb topildi. Bu e'tirof uni yanada shijoat bilan xizmat qilishga undashi shubhasiz.



Lavhamiz qahramoni boshqa sohaviy xizmat xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan tezkor tadbirlarda ham faol ishtirok etib kelmoqda.

U Jinoiy-huquqiy sohadagi qonunchilik ijrosini ta'minlash, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslarga nisbatan chiqarilgan sud hukmi va ajrimlari ijrosini ta'minlash borasida samarali ishlarni amalga oshirmoqda. Shuningdek, probatsiya nazorati ostida turgan mahkumlarning muammolarini aniqlash, ularga amaliy yordam berish, bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb etish ham doimiy diqqat markazida.

– Joriy yilning o'tgan davrida 18 nafar mahkum jazo o'tash davrida tuzalish yo'liga kirgani uchun belgilangan jazodan muddatidan ilgari ozod etildi, – deydi kapitan Hamrobek Jumaniyozov. – Aksincha, belgilangan jazoni o'tashdan

qasddan bo'yin tovlab yurgan 6 nafar mahkumning jazosi ozodlikdan mahrum qilish jazo turiga almashtirildi.

– Hamrobek Jumaniyozovning ichki ishlar organlarida xizmat qilayotganiga 12 yildan oshdi, – deydi tuman IIB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Jahongir Otajonov. – O'tgan davrda u o'zining sinchkovligi, kasbiga sadoqati tufayli hamkasblariga o'rnak bo'lmoqda. Qolaversa, ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rik-tanlovlarda ham faol qatnashib, g'olib va sovrindorlar safidan munosib o'rin egalladi. Masalan, o'tgan yili «Namunali oila» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida Jumaniyozovlar oilasi faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritganini e'tirof etish mumkin.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.



ISHONCH MAS'ULIYAT YUKLAYDI

Xabaringiz bor, yaqinda Toshkent shahrida «Namunali mahalla huquq-tartibot maskani» ko'rik-tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Quvonarlisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar IIOFMB JXX HPB katta inspektori, podpolkovnik Ayjamal Namenovning xizmatlari munosib e'tirof etilib, u tanlovning «Eng faol xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor» nominatsiyasi g'olibiga aylandi.

– Gapning rosti, ko'rik-tanlov nominatsiyasida g'olib bo'lishimga ishonmagan edim. Negaki, tanlovda ishtirok etgan har bir xodimning xizmat faoliyati alohida e'tirofga loyiq edi. Kamtarona faoliyatimiz yuqori baholanganidan juda xursand bo'ldim. Bu yuksak baho, bildirilgan ishonch zimmamga yanada katta mas'uliyat yuklaydi, – deydi podpolkovnik A.Namenova.

Ayni paytda podpolkovnik Ayjamal Namenova xizmat olib borayotgan Nukus shahrida 71 ta mahalla mavjud. Joriy yilning dastlabki ikki oyi mobaynidagi statistikani keltiradigan bo'lsak, mazkur mahallalarning 53 tasida jinoyat sodir etilmasligiga erishilgan. Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ra-

vonlikdan himoya qilish maqsadida 80 ta himoya orderi berilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlar faolligini oshirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, gender tengligini ta'minlash yuzasidan qator ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shu bilan birga, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish masalasi ham e'tibor markazidagi asosiy masalalardan biriga aylangan. Ushbu muhim vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda podpolkovnik Ayjamal Namenova singari fidoyi xodimlar safi yildan-yilga kengayib borayotgani esa g'oyat quvonarli holdir.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Республика Каракалпакстан



ОТВЕТСТВЕНЕН КАЖДЫЙ ИЗ НАС

Несмотря на принимаемые меры дорожно-транспортные происшествия остаются актуальным вопросом, в том числе в Республике Каракалпакстан. Согласно статистике, в 2023 году зарегистрировано 540 ДТП, что превышает показатели прошлого года.



– Управление безопасности дорожного движения МВД Республики Каракалпакстан принимает ряд мер по профилактике ДТП. В районах, где они зафиксированы, проводятся встречи и беседы с участниками дорожного движения, ведется раз-



ДТП со смертельным исходом уменьшилось на 11 процентов. За минувший период года произошло 55 происшествий, связанных с дорожным движением, что говорит о росте ДТП. Причем практически в половине из них пострадали пешеходы.

Больше всего несчастных случаев приходится на утренние и вечерние часы пик. В основном ДТП совершают лица в возрасте от 18 до 32 лет со стажем вождения от одного года до пяти лет.



бор ДТП, разъясняются правила безопасности, рассказывается о мерах наказания в отношении нарушителей, – говорит подполковник Салават Казбеков. – Подобные беседы организуются в образовательных учреждениях, на курсах подготовки водителей. **Каждая пятница недели в республике объявлена днем предупреждения дорожно-транспортных происшествий.** Во всех

организациях, учебных заведениях, махаллях и людных местах проводятся соответствующие мероприятия.

Одним из основных видов нарушений является превышение скорости. На него приходится 27,3 процента ДТП, совершенных в текущем году. Среди причин, провоцирующих эксцессы на дорогах, – изменение направления движения, управление в нетрез-

вом виде, движение по встречной полосе, обгон, несоблюдение сигналов светофора.

Печальнее всего происшествия с участием детей. За три месяца текущего года их зафиксировано ровно десять. Поэтому необходимо наладить обучение Правилам дорожного движения юных граждан. По инициативе Управления безопасности дорожного движения в общеобразовательных школах Каракалпакстана организованы 170 образцовых классных комнат по Правилам дорожного движения.

– Возле всех общеобразовательных школ региона установлены знаки ограничения скорости, – говорит старший инспектор пресс-группы майор Калбай Муратов. – Порядок на дорогах – дело важное, в его обеспечение должен вносить вклад каждый участник дорожного движения.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корп.



АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ ТАВАЛЛУДИНИНГ 130 ЙИЛЛИГИГА

«ТАЛАБ АҲЛИНИНГ МИРЗОСИ»

Абдулла Қодирий насри ҳақида кўп ва ҳўб ёзилган. Лекин унинг шоир сифатидаги салоҳияти тўлиқ тадқиқ этилмаган. Тўғри, у туркум шеърлар, достонлар ёки шеърӣ тўпламлар яратмаган. Бироқ ўрганса, ўқиса арзийдиган шеърӣ мерос қолдирган.

Юрт қайғуси, миллатни бутун кўриш орзуси Қодирийни унча-мунча шоирга ҳам айлантирганди. Ёш Абдулла илк изланишларида шеърлар ҳам машқ қилган, уларни асосан шарқ мумтоз адабиётининг анъанавӣ шеър шакли ғазал жанрида битган эди.

Абдулла Қодирий шеърларини икки тоифага ажратиш мумкин. Улардан биринчиси – «Тўй», «Аҳволимиз», «Миллатимга бир қарор», «Фикр айлағил» ва «Пилдир пис...» каби мустақил шеърӣ асарлар бўлса, иккинчиси – асосан «Ўткан кунлар», «Меҳробдан чаён» ва «Обид кетмон» каби эпик асарлари таркибидаги назм намуналаридир.

Шоирнинг «Меҳробдан чаён»даги санъати, маҳорати, айниқса, ҳайратланарли. Романдаги шеърӣ лавҳалар 100 мисрадан ошади. Уларнинг ҳар бири асарда ўзича алоҳида бир ғоявий-бадиӣ, тарбиявий-эстетик вазифага эга. Жумладан, Анвар ва Раъно мушоирасига эътибор беринг:

**Агар Фарҳоднинг Ширин, бўлса Мажнунларнинг Лайлоси,
Насиб ўлмиш менга гулшан аро гулларнинг Раъноси.**

Бу мисралар оқ қоғозга Анвар қаламидан эмас, қалбидан кўчган дейиш мумкин.

**Агар ор этса Лайли ҳақлидир Қайсни жунунидин,
Не бахт Раъно, харидоринг талаб аҳлининг Мирзоси, —**

байти Раъно кечинмаларининг бетимсол поэтик ифодасидир. Байтнинг романга эпиграф сифатида келтирилиши ҳам бежиз эмас. Зеро, адиб мазкур асарда икки севишган қалбнинг бахтли онлари, мураккаб қисмати ҳақида ҳикоя қилишни мақсад қилиб олганлигидан китобхонни огоҳ этмоқда. Шу туфайли мазкур байтлар икки ёш муҳаббати ифодаси сифатида асарда алоҳида ўрин тутади.



Айниқса, Абдулла Қодирийнинг «Тўй», «Аҳволимиз», «Миллатимга бир қарор», шеърларини ўқиганимизда, бу сатрлар бундан бир асрдан мўлроқ вақт олдин эмас, худди бугун ёзилгандек туюлади. Чунки ушбу асарларда кўтарилган муаммолар бугун ҳам долзарб ҳисобланади.

Тўй

Қилди бу вақт бизда жавлон тўй,
Оқчаси йўқни этди ҳайрон тўй.

Бир-биридан ошурдилар тўйни,
Топди равнақ, ҳайрати-ла боён тўй.

Беш кун тўйни сўнгидин
Кетибон мулклар боис фиғон тўй.

Боён тўйиға ерлилар қараб
Этди сарф токи тандаги жон тўй.

Эй ғанийларимиз, эй фақирларимиз,
Амр этубдурми бизға Қуръон тўй.

Мундаин ишлар шаръимизда йўқ
Кори мажъус, кори шайтон тўй.

Ишламас шундай ақллик киши,
Йўламас асло аҳли виждон тўй.

Ўтса тўй бирла ёзу қишимиз,
Айлағай бизни ерға яксон тўй.

Келингиз, дўстлар, дин қариндошлар,
Ташласун бўлса гар мусулмон тўй.

Абдулла Қодирий, баъзи бир одамлар айтмоқчи, «бир-иккита рисола ёзган» анчайин ёзувчи эмас, балки янги давр адабиёти, Европа адабиёти гази билан ўлчаганда ҳам тўлақонли асарлар ёзган, ўзбек романчилигини бошлаб берган улкан адибдир. Унинг «Ўткан кунлар», «Меҳробдан чаён» романлари, бир талай ҳажвий асарлари халқ орасида ғоят машҳур бўлиб, ҳар бир ўзбек оиласига, ҳатто саводхон одам бўлмаган оилаларга ҳам кириб борган эди. Аллақадердан келган бир китобхон «Ўткан кунлар»ни ёд билар экан, китобнинг исталган жойини сўралганда шаррос ўқиб берганида Абдулла Қодирий унга чопон кийгизгани ёдимда бор.

Абдулла ҚАҲҲОР,
Ўзбекистон халқ ёзувчиси.



Ўзбек адабиётининг йирик намояндаларидан бири Абдулла Қодирий 1894 йил 10 апрелда Тошкент шаҳрида туғилган.

Адибнинг илк ижоди 1913–1914 йилларда бошланган бўлиб, дастлаб у шоир сифатида қалам тебратган. Шеърларида миллатдошларини жаҳолат ва хурофотга қарши курашга чақириб, маърифатпарвар шоир сифатида майдонга чиққан. Унинг «Жувонбоз», «Улоқда» каби ҳикояларида ўз халқини саводли, билимли, маданиятли ва озод кўриш истаги сезилиб туради.

«Ўткан кунлар» романининг дастлабки боблари «Инқилоб» журналида чоп этила бошланди. 1925–1926 йилларда «Ўткан кунлар» уч бўлим ҳолида китоб бўлиб нашр этилди. 1928 йил ёзувчининг иккинчи тарихий романи «Меҳробдан чаён» нашрдан чиқди.

Абдулла Қодирий 1937 йилнинг 31 декабрида жаҳид боболаримиз қатори, «халқ душмани» сифатида қамоққа олиниб, 1938 йил 4 октябрда Тошкентда отилган.

Унинг асарлари 1956 йилдан бошлаб янгидан нашр этила бошланди. 1990 йилда Республика Президентининг фармони билан Абдулла Қодирий номидаги Республика Давлат мукофоти таъсис этилди. 1991 йили унга Алишер Навоӣ номидаги Давлат мукофоти, 1994 йили эса «Мустақиллик» ордени берилди.

Кўп асрли ўзбек адабиёти тарихидаги икки адабий асрни миллий адабиётимиз тарихининг олтин саҳифалари, десак, адолатдан бўлади. Агар шу икки асрнинг бири буюк Навоӣ номи билан мунаввар бўлган XV аср бўлса, иккинчиси Абдулла Қодирий, Фитрат ва Чўлпоннинг порлоқ ижодлари билан бошланган ўзбек адабиёти тарихининг янги даври — XX асрдир. Шу икки олтин асрнинг машъаллари бўлган бу адибларнинг ҳар бири миллий адабиётимиз тарихидаги мўъжизавӣ воқеа ва ҳар бири адабий феномендир.

Наим КАРИМОВ,
Ўзбекистон Республикаси фан арбоби.

▶ **ЁШЛАР – КЕЛАЖАК БУНЁДКОРИ**

МУАММОЛАР ЎРГАНИЛМОҚДА

Хоразм вилояти ички ишлар органларида уюлмаган ёшлар билан ишлаш тизими самарадорлигини ошириш, уларни ижтимоий-ҳуқуқий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш, бандлигини таъминлаш ҳамда бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш мақсадида бир қатор тадбирлар амалга оширилмоқда.

– Вилоятимиз бўйича амалий ёрдамга муҳтож бўлган 58 минг 832 нафар йигит-қиз вилоят ИИБ бошлиғининг буйруғига биноан, соҳавий хизматлар, шаҳар ва туман ички ишлар бўлимлари раҳбарларига бириктирилган, – дейди вилоят ИИБ бошлиғининг ўринбосари, полковник Муҳаммаджон Атабаев. – Айни кунда ушбу йўналиш бўйича барча ҳудудларда режа-дастурлар ишлаб чиқилиб, оталиққа олин-

ган ёшларнинг турмуш тарзи, мавжуд муаммолари, таклиф ва истаклари, қизиқишлари ўрганиб чиқилмоқда. Ушбу изланишлар натижасида уларга касб-ҳунар коллежларига, мономарказларга йўлланмалар берилиб, бўш иш ўринлари таклиф этиляпти. Шунингдек, уларнинг билим ва иқтидорини, жисмоний қобилиятини аниқлаш мақсадида турли маънавий-маърифий тадбирлар, спорт мусобақалари ўтказилмоқда.



Яқинда Шовот туманида оталиққа олинган ёшлар билан ишлаш, уларни турли спорт, санъат ва фан тўғрисида жалб қилиш, бўш вақтларини мазмунли ташкил этиш мақсадида «Соғлом ҳаёт учун 5000 қадам» марафони ўтказилди. Тадбирда ички ишлар органларига бириктирилган 240 нафар йигит-қиз иштирок этиб, соғлом ҳаёт билан ҳамнафас эканликларини намойиш этишди. Шундан сўнг тумандаги «Ал-Хоразмий» номли физика ва математика мактаб-интернатида «Беш ташаббус олимпиадаси» доирасида спорт мусобақалари ўтказилди. Бунда туман ҳудудидаги маҳаллаларда истиқомат қилувчи 14 ёшдан 30 ёшгача бўлган ёшлар фаол иштирок

этиб, спортнинг мини футбол, волейбол, стол тенниси, шашка, шахмат турлари бўйича ўзаро баҳс олиб боришди. Ҳакамлар ҳайъати ҳар бир иштирокчининг хатти-ҳаракатини диққат билан кузатиб, уларнинг маҳоратини ҳолисона баҳолаб боришди.

«Беш ташаббус олимпиадаси» ғолиблари вилоят ИИБ ва ҳамкор ташкилотларнинг диплом, медаль ҳамда қимматбаҳо совғалари билан тақдирланишди.

Тадбир якунида ички ишлар органларидаги махсус техника воситаларининг кўргазмали намойиши ҳам ташкил этилиб, уларнинг техник хусусиятлари юзасидан зарур тушунтиришлар берилди.

Худойберган ЖАББОРОВ,
ўз мухбиримиз.

Хоразм вилояти.

▶ **ТАНЛОВ**

ДИЛЛАРДА ВАТАН МАДҲИ



Таниқли мутахассислардан иборат ҳайъат ижодкор ёшларнинг ижодий чиқишларини баҳолаб борди.

Қизғин баҳсларга, муҳокамаларга бой кечган танловда шеърият йўналишида ғолибликни Қарши шаҳар вакиласи Мафтуна Темирова қўлга киритди. Унинг Ватан тўғрисидаги шеъри нафақат ҳайъат аъзоларида, балки томошабинларда ҳам илиқ таассурот қолдирди. Навбатдаги совринли ўринлар эса чироқчилик Онажон Қўлдошева ҳамда шаҳрисабзлик Шахина Усмоновага насиб этди.

Инсон қалбининг нозик торларини тебратувчи қўшиқчилик санъати йўналишида Шаҳрисабз тумани вакиласи Жасмина Шералиева биринчи, Шаҳрисабз шаҳар вакили Элдор Турсунов иккинчи, Қарши тумани вакили Оғабек Лутфуллоев учинчи ўринни эгаллади.

Кўрик-танлов ғолиблари диплом ва қимматбаҳо совғалар билан тақдирланди.

Фурқат ЖАЛОЛОВ,
капитан.

Қашқадарё вилояти.

Ватан – муқаддас. Уни асраб-авайлаш, ҳимоя қилиш баробарида, юқори пардаларда мадҳ этиш ҳам юрт фарзанди учун улғушарафдир. Зеро, чинакам ватанпарварлик, аввало, ўзи туғилиб ўсган заминни севмоқ ҳамда ана шу туйғу ила улғуламоқ орқали кўнгилларда ниш уради, қарор топади. Қарши шаҳридаги вилоят Ёшлар марказида ўтказилган «Дилларда Ватан мадҳи» шиори остидаги қўшиқ ва шеърият танлови бу фикримизни яна бир бор тасдиқлади.

Танлов вилоят ички ишлар органлари оталиғига бириктирилган 14 дан 30 ёшгача бўлган ёшлар орасидан энг иқтидорлиларини аниқлаш ва танлаб олиш мақсади-

да ташкил этилди. Унда воҳанинг барча шаҳар-туманларида ўтказилган танловнинг дастлабки босқичида ғолибликни қўлга киритган 32 нафар йигит-қиз қатнашди.



MUTAXASSIS MINBARI

«INTELLEKTUAL PORTRET»

A
F
Z
A
L
L
I
K
L
A
R
I

Bugungi kunda mamlakatimiz ichki ishlar organlari probatsiya xizmatida «Intellectual portret» ekspress psixodiagnostika dasturidan keng foydalanilmoqda. Mazkur dastur shaxsning millati, yashash hududi, sodir etgan jinoyati va jazo turiga oid ma'lumotlar hamda yuz tuzilishiga ko'ra uning ijtimoiy psixologik portretini tayyorlaydi. Ushbu tashxis tizimi insonning temperamenti, ruhiy holati, favqulodda vaziyatlarga baho bera olish darajasi, voqelikka nisbatan pozitsiyasi, ruhiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvchanligi, ichki agressiyasi, hayotiy motivlari, qiziqishlari, ijobiy, salbiy, kuchli va kuchsiz jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, dastur o'rganilayotgan shaxs bilan munosabat o'rnatish, psixologik barqarorligini ta'minlash, ruhlantirish, muayyan hissiyotlarini uyg'otish, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish kabi masalalarga oid tavsiyalarini taqdim etadi. Ya'ni, tizim nazorat ostidagi shaxslarning jinoyat sodir etishlarining oldini olish, ularni ozodlikdagi hayotga moslashtirish, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va huquqiy ko'mak ko'rsatish chora-tadbirlarini belgilashda qo'l kelmoqda.

Asosiysi, dastur to'liq tuzalish yo'liga o'tganligi, jinoyatga moyilligi hamda jinoyat sodir xavfi yuqoriligiga ko'ra mahkumlarni toifalarga ajratadi. E'tiborlisi, ilgari mahkumlarning psixologik portreti yuzma-yuz suhbat, so'rovnomma, test o'tkazish yo'llari bilan aniqlanar, ishga bu tarzda yondashuv juda ko'p vaqt olar, mutaxassis tomonidan barcha mahkumlarni qamrab olish anchayin mushkul edi.

Shu o'rinda aytish joiz, hozirda viloyat, shahar va tumanlar IIB probatsiya xizmatlari xodimlari

«Intellectual portret» ekspress psixodiagnostika dasturi, suratga olish uchun fotoapparat va yoritkich bilan ta'minlangan. Bu esa joylardagi soha vakillariga muayyan shaxsning psixologik portretini bir necha daqiqa ichida tuzish imkonini beradi. O'z navbatida ushbu ma'lumot asosiy e'tiborni jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo'lganlarga qaratish, profilaktik va psixologik tadbirlarni kuchaytirish imkoniyatini kengaytirdi.

Yana bir ma'lumot: har 3 oyda jazoni ochiqda o'tayot-

ganlarning psixologik portreti qayta tuziladi va natijalarga ko'ra tegishli choralar belgilanadi. Xorij tajribasida boshqa tezkor qidiruv tadbirlari bilan birga psixologik portretidan foydalangan holda jinoyatni fosh etish, qonunbuzarning shaxsini aniqlash va qidiruvdagilarni qo'lga olish borasida ijobiy natijalarga erishilyapti. Qisqasi, mazkur dasturning imkoniyatlari juda keng.

Abbos DONABOYEV,
Jizzax viloyati IIB Probatsiya bo'limi katta psixologi, katta leytenant.



QO'SHQANOTLAR

MEHR – EZGULIK KURTAGI

Baxtli bo'lish uchun ikki tanlovda: munosib juft topishda va kasb tanlashda adashmaslik kerak.

Pop tumani IIB JXX HPB Xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Adolat Xojayevani taqdir siylagan. U kasb tanlashda ham, munosib juft topishda ham adashmadi. Mas'uliyatli va mashaqqatli sohani tanlayotganida yaqinlari qiz bolaga bu kasb bo'lmaydi, vaqti kelganda yo oilani yoki ishni tanlashga to'g'ri keladi, deb ahddidan qaytarmoqchi bo'lishdi. Lekin qat'iyatli qiz o'z fikridan qaytmadi.

2013-yilda bitiruv amaliyotini o'tash uchun Namangan shahar IIOFMBga yuborilgan Adolat huquqbuzarlik sodir etgan o'quvchini qidirib, Namangan oziq-ovqat kasb-hunar kollejiga keladi. Aynan shu kollejda o'qituvchi bo'lib ishlaydigan Zuhridin Xojayev o'quvchining guruh rahbari bo'lib, xizmat vazifasi ularni bir-biriga yaqinlashtiradi.

Adolat IIV Akademiyasini bitirib kelgach, Zuhridin unga niyati jiddiyligini aytadi. Qiz unga javoban, kasbini yaxshi ko'rishini, agar xohlasa, ichki ishlar sohasiga kirib, bir-birlarini tushunib ishlashi mumkinligi haqida so'z ochadi. Zuhridin sinovlarni muvaffaqiyatli topshirib, qo'riqlash bo'limiga qabul qilinadi. IIV Akademiyasi Serjantlar tarkibini tayyorlash oliy kurslarini tamomlab, Chust tumani IIB JXX probatsiya guruhi inspektori lavozimida faoliyatini boshlaydi.

Yangi oila o'ziga yarasha hayot sinovlarida ham toblandi. Bu orada birin-ketin uch farzand ko'rishdi. Bunday paytlarda er-xotin mas'uliyatni barovar zimmaga olsa, qiyinchiliklar ham bilinmaydi. Oilaning baxti va to'kisligi ham shunda-da...



Zuhridin izlanuvchan, bilim olishga qiziqadi. Avval Namangan davlat universitetini, so'ng Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining milliy istiqloq g'oyasi yo'nalishi bo'yicha magistraturasini tamomlagan. 2021-yilda esa IIV Akademiyasini ham sirtidan tamomlab oldi. Ayni kunlarda turmush o'rtog'i bilan birgalikda ilmiy ish qilishga ham jiddiy kirishgan.

Pop tumanida 116 ming nafardan ortiq xotin-qiz istiqomat qiladi. Tumandagi xotin-qizlarning muammolarini hal etish, ajrim yoqasidagi oilalarni yarashtirish, turli tazyiqlarga uchrayot-

ganlarni himoya qilish Adolatning zimmasida. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tumanda o'tgan yil yakuni bo'yicha xotin-qizlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlar ko'rsatkichi keskin kamaydi. Xizmatga sadoqati va kasbiga mehri cheksiz xodimning joriy yil Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida muddatidan avval podpolkovnik unvoni olishi ham uning mehnatlari rahbariyat tomonidan munosib e'tirof etilgani dalolatidir.

Turmush o'rtog'i, kapitan Zuhridin Xojayev Chust tumani markazida 22 ta mahalladagi probatsiya nazoratiga olingan shaxslar bilan profilaktik ishlar olib boradi. Profilaktik ishlarni to'g'ri tashkil etgani samara berib, uning tavsiyasiga binoan, 23 nafar tuzalish yo'liga kirgan shaxs muddatidan avval qo'llanilgan jazodan shartli ravishda ozod qilindi.

– Baxt kinolarda yoki kitoblarda emas, balki hayotda ham bor, – deydi podpolkovnik Adolat Xojayeva. – Bir-birini to'g'ri tushunish va qo'llab-quvvatlash, hurmat bilan qarash odamlarni yaqinlashtiradi. Baxtli yashashni ko'pchilik ayol kishiga bog'lashadi. Hayotiy tajribamdan kelib chiqib aytmoqchimanki, baxtiyor yashash ko'proq erkak kishiga bog'liq. Mehrni his qilib yashash insonni ezgu ishlarga yetaklaydi.

Yurtimizda Adolat Xojayeva kabi jamiyatda ham, oilada ham o'z o'rnini topayotgan baxtli opa-singillarimiz safi ko'payaversin.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSII

MUHAMMAD YUSUF — VATAN KUYCHISI

Muhammad Yusuf deganda, nega ko'z oldimizga O'zbekiston kela-di? Uning Vatani tog'lar, daryolar, dalalar, qishloqlar: bir so'z bilan aytganda, Mingtepaning butun qiyofasi shoir shaxsining mavjudligiga aylanadi. Agar shu «kichik Vatan» ortida katta muhabbat bo'lmaganda, she'rlari bu qadar sehrli kuchga ega bo'lmasdi. Shoir o'z mamlakatining qudrati, cheksizligidan faxrlanadi. U uchun Vatan nafaqat makon, balki o'zining bir bo'lagi, tarixi, ildizidir.

Sen Xo'jandsan,
Chingizlarga
Darvozasin ochmagan,
Temur Malik orqasidan
Sirdaryoga sakragan,
Muqannasan qorachig'i
Olovlarga sachragan
Shiroqlarni ko'rgan cho'pon
Cho'lig'imsan, Vatanim!

«Vatanim» she'rida shoir ona yurtiga cheksiz muhabbatni ifoda qilib, Temurmaliq, Shiroq jasoratini, Balxda dorga osilgan Mashrab kimligini ko'rsatib beradi. Husayn Boyqaro yonida turib faqirlarga ko'mak bergan Navoiy bobomizning ezgu ishlaridan ruhlanadi. Kurdistonda Jaloliddin, Hindistonda Bobur asos solgan saltanatdan faxrlanadi. Ulug'bek Mirzo qoldirgan ilmiy-ijodiy merosning davomchilari ekanini anglaydi. Axir, bizga mana shu ajdodlarimizning qo'rqmasligi, qahramonliklari bugungi tinch-osoyshta, farovon hayotni, o'z diyorimizda ozod va erkin yashash imkoniyatini bermadimi?

Har bir insonning yuragining tubida, qonida vatanparvarlik bor. Chunki Vatanni sevish yo himoya qilish istagi hech qanday majburiyatlarga aloqasi bo'lmagan yuksak va tabiiy tuyg'u. Muhammad Yusuf bu haqda shunday deydi: «She'r yozish ham o'zing bilmay bironvga yaxshilik qilishdek gap. Haqiqiy she'riyat hamisha oyoq ostida. Misralar qulundek tuproqqa ag'anab yotishibdi. Tur, toychoq, chopamiz, desang bas. Biz ham bir zamon bir oyoq ostiga boqib she'r topamiz. Keyin uning changini qoqamiz va qancha ko'p qoqsak – shuncha ko'p yo'qotamiz...»

Shoir uchun o'zlikni anglash, ona tilining go'zalligi va boyligini bilish manbasi uni ijod cho'qqisiga ko'taradi. Masalan, Vatan so'zi ustida Muhammad Yusufning yuragi o'ynab turadi. U tuyg'ularini bezashga harakat qilmaydi. Buning keragi ham yo'q. Uning tasavvurida Vatan timsoli allaqachon ideal. Kamchilik, illatlariga qaramay, har bir giyohi, daraxti, guli, toshini yaxshi ko'radi. Shundan she'rlariga muhabbat, g'urur va hayrat singib ketgan.


Yorug' yuzim,
Ko'k yorishib
Ketgaydir bir jilmaysang,
Dunyolarni oqqo o'rab
Qo'yganingni bilmaysan,
Uyingda ham,

To'yingda ham
Paykalingni o'ylaysan,
Sodda dil – imonim mening,
Bobodehqonim mening...

«Bobodehqonim» she'ri ham qishloq odamlarining yorqin obrazi. U orol qurishi, oila, o'zbek dehqonlarining qismati, milliylikka e'tibor kamaygani, qay biri haqida qayg'urmasin, xalqning yuragida jo'sh urgan kechinmalarni qalamga oladi.

Shoir she'rlarining zamon bilan hamnafasligi va barhayotligi shundaki, u, birinchi navbatda, Vatanga «O, ota makonim» deb murojaat qiladi. Yer yuzidagi eng aziz va yaqin inson – «onasi»ga tenglashtiradi. Uni sevish va himoya qilishni muqaddas burch, deb biladi. Vatan bitta, deb hisoblaydi. Shoir uchun dunyoda Vatandan qimmatli va muhimroq narsa yo'q. U hayotini usiz tasavvur qilolmaydi:

Bildimki, baridan ulug'im o'zing,
Bildimki, yaqini shu tuproq menga.
Bahorda baxmalda tug'ilgan qo'zing,
Arab ohusidan azizroq menga!



Shoir «O'zbekiston» she'rini ham o'zi sevgan Vatanga bag'ishlaydi. U mustaqil yurti, ozod xalqni ko'rdi. Mustaqillik bayramlarida qo'shiqlari baralla yangradi. Bu dorilamon kunlarni o'zining emas, xalqning katta orzusi, hayotidagi muhim hodisa, deb biladi. She'rlarining lirik qahramoni sayyohatga chiqqanda ham bir kun bo'lmay, o'z uyini sog'inadi. Shu kichik go'sha orqali katta yurti ko'radi, uning mas'uliyatini his qiladi. Inson qa-



Vatanim



yerga bormasin, qanday o'zgarmasin, uning yuragida qishlog'i, ota-onasi, yor-u do'stlariga bo'lgan muhabbat yashaydi. Aynan, shu mehr, oqibat, yurt sog'inchi insonga kuch beradi. Bu balandparvoz gaplarnas, Muhammad Yusuf himoya qilgan oddiy haqiqatlar.

Shoirilar bilan hech oshnoligim yo'q,
Men yorug' dunyoda ko'ngil quliman.
Osmonga qaragam ko'rinar tuproq,
Maysaga termulib oyna ko'raman.
Bu qanday ko'rgilik, bilmayman, o'rtoq,
Men qachon dalada bug'doy o'raman?

Shoirlik men uchun aslo orzumas,
Shu ham ish bo'ptimi erkak boshimga?
Hamma shoir zotini yig'sa, arzimas,
Uyimni sog'inib to'kkan yoshimga.

Bu she'rda fikriy parokandalik, zo'riqish yo'q. O'qiganda ona qishlog'ing yodga tushadi: osmoni, yulduzlari, qaldirg'ochi-yu qizg'aldoqlari, hatto itlar hurishi, xo'rozlar qichqirishi ham o'zgacha zavq beradi. Ruhiiy quvvatni go'zal tabiati, kengliklaridan olasan. Tasavvuringda Vatan shuncha-ki hudud emas, oila, yaqinlar, do'stlar yashayotgan, tug'ilib o'sgan, yashaydigan va abadiy qo'nim topadigan ilohiy maskandek ko'rinadi.

Muhammad Yusuf she'rlari asosida yangragan Vatan qo'shiqlari ham sokin, musaffo, samimiy, g'ururli va mahobatli. Bizni sevgan makonni qadrlashga, o'stirgan, boqqan va tarbiyalagan insonlarni e'zozlashga o'rgatadi. Ongimizda muhabbat, do'stlik, or-nomus, haqiqat, ezgulik, erkinlik kabi abadiy tushunchalarni jonlantiradi.

Uning «Men dardimni kimga ayta-man?», «Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston», «Lolaqizg'aldoq» kabi qo'shiqlarini hatto maktab bolalari ham yoddan biladi.

O'zbek xalqining ardoqli shoiri agar hayot bo'lganida, bu yil yetmish yoshni qarshilagan bo'lardi. Undan o'lmas ijodiy meros qoldi. «Muhammad Yusuf izdoshlari» nomi bilan tanilgan yosh qalamkashlar ham shoir nomining barhayotligini isbotlab kelmoqda.

Adiba UMIROVA,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi.

MANZARA

Bedapoya to'ridagi juftin qidirib,
Sayray-sayray jimib qoldi
bedana dilgir.

Suvsumbulni va'dasiga
ko'mib, ko'ndirib,
O'ynatgani olib ketdi
ipmoq qaygadir.

Qir tomondan poda qaytib
kelarkan qator
Kumush sohil bo'ylariga
changlar yastanib,
Qishloqning eng chekkasidan
bahaybat chinor
Ufq tarafga qarab qo'ydi xavotirlanib.

Quyosh osmon etagiga osilib, mana,
Bir xo'rsinib ko'zdan g'oyib
bo'ldi-yu keyin –
Qo'shni qizning havasini keltirib yana
Tolko'chaga suv sepishni
boshladi kelin...

Tanish terak. Ariq yoqasi.
Bo'tana suv, shirin loyqa suv.
Tol ko'chada otlar taqasi,
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga...

Yalpiz hidi tutgan dalalar,
Gapga chechan boqchaxolalar,
Belanchakda yotgan bolalar,
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga.

Tog' ortidan mo'ralagan kun,
Shiyponlardan o'rlagan tutun,
Tut shoxiga osilgan tugun...
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga.

O'qariqdan yolg'izoyoq yo'l,
Menga ilhaq, menga mushtoq yo'l,
O, qadrdon bir juft qadoqqo'l,
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga.

Yog'och eshik ochilar sekin,
Toshmehrman men juda, lekin
Hozir yig'lavorishim mumkin –
Qancha bo'ldi ko'rmaganimga...



ХОТИРА – АЗИЗ, ЖАСОРАТ – МАНГУ

ЮРТНИНГ МАРД ЎҒЛОНИ ЭДИ

Тошкент милиция мактабини тамомлаган Абдукарим Юлбарисов ички ишлар органларидаги фаолиятини 1977 йилда бошлаган. Хизмат жараёнида ҳозирги Ўзбекистон миллий университетининг ҳуқуқшунослик факультетида ҳам сиртдан таҳсил олди. 2003 йилгача юртимизнинг бир қатор вилоят бошқармалари ва туман бўлимларида сидқидилдан хизмат қилди.

У йигирма олти йиллик фаолияти давомида пойтахтимизнинг Бектемир ва Мирзо Улуғбек туманлари, Тошкент вилоятининг Ўртачирчиқ, Оққўрғон ва Оҳангарон туманлари ҳамда Сирдарё вилояти ички ишлар органларида масъулиятли лавозимларда хизмат қилди.

Абдукарим Юлбарисов қайси ҳудудда хизмат олиб бормасин, тез орада ўша жойда жиноятчилик кескин камайиб, аҳолининг осойишта ҳаёти таъминланар, ҳамкасбларининг ҳурматига, эл-юртимизнинг меҳрига сазовор бўларди.

...2003 йилнинг 9 апрель куни эди. Чироқчи тумани ИИБга мазкур ҳудуднинг «Бешчашма» қишлоқ фуқаролар йиғинига қаршли «Араббанди» қишлоғида ака-укалар Аҳрор ва Маҳмарасул Шукуровлар ўртасидаги келишмовчилик отишмага айланиб кетгани ҳақида хабар келиб тушади. Туман ИИБ бошлиғи-

нинг 1-ўринбосари, майор Ш. Қурбонов бошчилигидаги тергов-тезкор гуруҳи зудлик билан воқеа жойига етиб келишади. Шундан сўнг Аҳрор иккита ов милтиғи билан унинг чордоғига яшириниб олиб, осойишталик посбонларига ўқ узишни бошлайди. Тергов-тезкор гуруҳи аъзоларининг жиноятчи билан олиб борган музокаралари наф бермагач, уни қўлга олишга киришишади. Қўшалок милтиқ билан қуролланган А. Шукуров эса қаршилиқ кўрсатиб, ҳатто туман ИИБ бошлиғининг 1-ўринбосарига тан жароҳати етказди. Бу орада вилоят ИИБга 2 йил давомида раҳбарлик қилаётган полковник А. Юлбарисов бошчилигидаги тергов-тезкор гуруҳи ҳам воқеа жойига етиб келади. Жиноятчини қуролсизлантириш ва қўлга олиш вақтида жасорат кўрсатган А. Юлбарисов, қонун-



бузарнинг ўқи етказган оғир тан жароҳати туфайли ҳаёт билан видолашди.

Вафотидан сўнг мардлиги ва фидойилиги учун А. Юлбарисов давлатимиз раҳбарининг

фармониغا биноан, «Жасорат» медали билан мукофотланди.

Ҳозирги кунда унинг касбини кўплаб шогирдлари қаторида, фарзанди Юқоричирчиқ тумани 1-сонли ИИБ бошлиғи, подполковник Эркин Юлбарисов ҳамда набираси вилоят ИИББ Эксперт-криминалистика маркази катта эксперти, катта лейтенант Жасурхўжа Абдукаримовлар фидойилик билан давом эттиришмоқда.

– Мен ана шундай мард ва жасур инсоннинг фарзанди эканлигимдан беҳад фахрланаман, – дейди Э. Юлбарисов. – Отамнинг шарафли касбини давом эттириш учун нафақат мен, балки ўғлим ҳам ички ишлар органлари тизимида хизмат қилиб, юртимиз тинчлик-осойишталигига астойдил ҳисса қўшяпмиз.

Ажойиб инсон ва жонкуяр раҳбар, полковник Абдукарим Юлбарисов бугун орамизда бўлмаса-да, унинг ёрқин хотираси ҳамкасблари ва яқинларининг қалбида абадий муҳрланиб қолди.

Михли САФАРОВ,
ўз мухбиримиз.

Тошкент вилояти.

KASB FIDOYISI

DOVYURAK XALOSKOR

Jizzax viloyati IIB JXX YHXB 2-safarbarlik guruhi inspektori, safdor Yunusbek Umarov Sharof Rashidov tumani hududidan o'tgan M-39 «Toshkent – Termiz» avtomobil yo'lining 982-kilometrda xizmat olib borayotgandi. Shu payt uning qarshisida «Isuzi» yuk mashinasi to'xtadi va avtouloddan tushgan haydovchi bu yerdan 2-3 kilometr narida «Lacetti» katta tezlikda zovurga tushib ketganligini bildirdi. Xodim zudlik bilan haydovchi ko'rsatgan joyga xizmat avtomashinasida yetib bordi. Yo'l-yo'lakay hamkasbini ko'makka chaqirishni unutmadi.

Darhaqiqat, zovur ichida «Lacetti» ag'darilib yotgandi. Shoshilgan-cha chuqurlikka tushgan safdor haydovchining ko'kragi rul va o'rindiq orasida qisilib qolganligini ko'rdi. Jabrlanuvchining boshi pastda bo'lgani bois avtomashina ichiga sizib kirayotgan suv ayolning og'iz-burnini to'ldirishiga oz qolgandi. Kamiga jabrlanuvchi boldir suyagining ochiq sinishi jarohatini olgan va oyog'idan to'xtovsiz qon ketayotgandi. Ob-havoning sovuqligi ayolning aholini yanada og'irlashtirayotgani yaqqol sezilib turardi.

Tez harakat qilmasa, haydovchi hayotdan ko'z yumishini anglagan safdor Yunusbek Umarov yordam berish choralarini ko'ra boshladi. Aksiga olgandek, haydovchi tomondagi eshik ochildi.



Shu choq hamkasbi yetib keldi va ular 5 daqiqalik urinishdan so'ng ayolni tashqariga olib chiqishga muvaffaq bo'ldilar. Keyin qonni to'xtatish choralarini ko'rdi. Bir muddatdan so'ng tibbiy yordam avtomashinasida ko'rindi...

Shu tariqa Sharof Rashidov tumani «Havoslik» mahallasida yashovchi M.K.ning hayoti saqlab qolindi.

Abbos DADASHOV,
Jizzax viloyati IIB JXX YHXB
katta inspektori,
leytenant.

Урок духовности и просвещения

МУХАММАД ЮСУФ – ПЕВЕЦ РОДИНЫ

«Мухаммад Юсуф был всенародно любимым, искренним поэтом, истинным патриотом...»



Мухаммад Юсуф – один из выдающихся современных поэтов узбекской литературы. Родился и вырос он в селе Ковунчи Мархаматского района Андижанской области. С детства мальчик впитывал в себя красоты окружающего мира, любовь и уважение к родному краю, что нашло отражение в дальнейших произведениях. После окончания средней школы, стал студентом нынешнего Узбекского государственного университета мировых языков. Впервые его стихи были опубликованы в еженедельной газете «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» («Литература и искусство Узбекистана»). Тогда ему было всего 22 года. И лишь спустя девять лет, выходит первый поэтический сборник «Знакомые тополя».

После окончания института работал в Обществе книголюбив страны. Затем он продолжил свою карьеру в «Вечернем Ташкенте». К редакторской деятельности в издательстве литературы и искусства имени Гафура Гуляма вернулся почти через 5 лет. В профессиональной биографии поэта была работа в газете «Голос Узбекистана», также он был заместителем главного редактора Национального информационного агентства Узбекистана, заведующим отдела журнала «Тафаккур». В 1996 году поэт стал членом Союза писателей Узбекистана. А уже в 1997 году его назначили заместителем председателя Союза писателей Узбекистана.

На начальном этапе своего творческого пути молодому дарованию посчастливилось познакомиться с Эркином Вахидовым и Абдуллою Ариповым, чья поддержка помогла начинающему поэту раскрыться в полной мере.

За свою недолгую жизнь Мухаммад Юсуф подарил читателям более 10 сборников, среди которых: «Илтижо» («Убедительная просьба»), «Халима энам аллалари» («Колыбельные матушки Халимы»), «Ишк кемаси» («Корабль любви») и многие другие.

В его стихах, посвященных родному краю, прочно

Шавкат МИРЗИЁЕВ.

утвердились художественность, простота и искренность, которые заняли свое место в сердцах миллионов поклонников. Его любовь к Родине была искренней и безусловной, а стихи стали визитной карточкой узбекской культуры. Динамичные, смысловые и красочные, они словно оживали в исполнении артистов, наполняя жизнью и радостью сердца слушателей.

За великие творческие достижения в годы независимости Мухаммад Юсуф Указом Первого Президента Ислама Каримова был награжден орденом «Дўстлик» и ему было присвоено звание «Народный поэт Узбекистана».

Мухаммад Юсуф был известным поэтом, который не только творил собственные стихи, но и занимался переводческой работой с большой ответственностью и избирательностью. Он жил ярко, словно птица парящая над землей, однако его творческий полет был прерван на взлете 29 июля 2001 года.

Мухаммад Юсуф был народным поэтом, чьи стихи стали наследием для многих поколений и оставили незабываемый след в мире литературы. Его ранняя утрата стала большой потерей для многих, но творчество продолжает жить в сердцах людей.



УЗБЕКИСТАН

О, милая отчизна!
О, дивная страна!
Ты, Родина, на радость нам дана.
Любимая, навеки я твой сын,
Поэтом стал в тени твоих вершин.
Я наше клеверное поле не отдам
За Колизей, Биг Бен и Нотр Дам.

Ты цветешь между рек, среди могучих гор,
Красотою твоей не насытит взор.
Сколько судеб видал, сколько разных стран –
Я тобой лишь горжусь, мой Узбекистан.

Видел в дальних странах множество красот,
Может, я придиричив, может, слишком прост,
Но отдам парижский лучший ресторан
За тандыр во дворе, за родной ширман.

Там все чуждо вокруг, и язык не мой,
Слова мне не сказать, будто я немой,
Из зениц сон ушел, из души покой.
И трех дней не прошло, а хочу домой –
Нужен мне не вояж, а кишлак родной.

Вечно будешь ты жить, а с тобой и я
Стану вешней травой для тебя, земля.
Буду ждать бахмальных ярочек в апреле –
Аравийских лучше ярочки газелей.

Каждый день с тобою – праздник для меня.
Я приветствую всех, знающих тебя,
Трудно жить без Родины даже краткий миг –
Жаль мне тех, кто край мой сразу не постиг.

СКУЧАЮ

Живу в Ташкенте – по горам скучаю,
По разнотравью лугов скучаю.
По одуванчику – доверчивому другу –
Среди коробок каменных скучаю.
Под ливнем бегал я еще вчера,
И пел, лицо росой умывая.
Лукавых бабочек ловила детвора...
По детству моему давно скучаю.
В Ташкенте лишь заря встает
Стук каблуков высоких уши рвет,
Скучаю по скучающим по мне –
По босоногим я друзьям скучаю!
Ушел я от тебя, мак алый, чистоликий,
Известности, как счастья, ожидая.
Вокруг на нежных пальцах злата блики...
Я ж по мозолистым рукам скучаю.
Что мной не узнано досель, узнал,
В огромном городе беспечно согрешая,
В мечтах дворцы и замки воздвигал –
Теперь по дальним-далям я скучаю.
Чуть в городе обманщиком не стал,
Жил, сердца теплоты не отдавая,
И так давно Тебя не навещал –
Сейчас по чистым родникам скучаю.

(Перевод Валерия Рейхеля.)



«Не печалься сердце»



«На бабочку я обменяю»



JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

HAMMASINING ORZUSI BITTA

Jazo nima uchun muhim? Nega necha asrlardan beri jinoyatga jazo muqarrar bo'lib kelmoqda? Garchand savollar oddiy, javobi ham tayin bo'lsa-da, jinoyatsiz va jazosiz jamiyat qurish insoniyatning eng katta orzularidan biri. Lekin hozirgi davrda jazo jinoyatchini tiyib turishning muhim vositalaridan biri bo'lib qolmoqda. IIV huzuridagi JIED Uchinchi mintaqaviy hududi 40-manzil-koloniyasi ham aynan shunday muhim vazifani bajaradi. Muassasadagi mahkumlar erkinroq sharoitlarda ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishadi.



Bu yerda bo'lishga hech kim havasmand emas. Barcha mahkumlar faqat bitta orzu bilan yashaydi – tezroq ozodlikka chiqib, oilasi bag'riga qaytish. Muassasa xodimlari ham bu borada ularga ko'maklashishga tayyor, faqat qonun doirasida, albatta. Buning uchun mahkumlar o'rnatilgan tartib-qoidalarga rioya etishi, o'z xatosini ang-

lab yetib, chin dildan pushaymon bo'lishi lozim.

– Har bir mahkum biz uchun eng avvalo inson, – deydi manzil-koloniyaning tarbiyaviy ishlar bo'linmasi katta inspektori katta serjant Karim Abdurazzoqov. – Ularning har biri bilan yakka

tartibda shug'ullaniladi, dunyoqarashini kengaytirishga, bilimini oshirishga katta e'tibor qaratiladi. Shu maqsadda manzil-koloniya 10 mingga yaqin kitob fondiga ega kutubxona, ma'naviyat xonasi, sport maydonchasi tashkil etilgan. Bundan tashqari, mahkumlarning muntazam ravishda ma'naviyat maskanlariga sayohatlari tashkil etiladi. Belgilangan reja asosi-



da o'quv-tarbiyaviy jarayonlar o'tkaziladi.

Manzil-koloniya joylashgan Guliston tumanida qishloq xo'jaligi rivojlangan. Shu bois muassasaga birlashtirilgan yerlarda g'alla, sabzavot ekinlari yetishtiriladi, chorvachilik xo'jaligi yuritiladi. Bu jazoni o'tayotgan shaxslarni ish bilan ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Manzil-koloniya nazorat o'tish punktida xizmat olib boruvchi safdor Mahmud Anorqulovni ko'pchilik yaxshi taniydi. Xushmuomala bu

yigitning har bir murojaatiga e'tiboriligi, odamoxunligini e'tirof etishadi. U mahkumlarga olib kelingan buyumlarning o'z vaqtida yetkazib berilishiga alohida mas'uliyat bilan yondashadi. Shuning-



dek, koloniyaning xavfsizligini ta'minlash, taqiqlangan buyumlarning olib kirilishining oldini olish ham uning vazifasi.

Mazkur manzil-koloniya viloyatdagi bir qancha yirik ishlab chiqarish obyektlari bilan shartnoma tuzgan bo'lib ularda ko'plab mahkumlar mehnat qilishadi. «Wanda grupp» O'zbekiston-Xitoy qo'shma korxonasi kabi bir qator sanoat gigantlari shular jumlasidandir.

– Metallni qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonada 40 nafar mahkum ishlaydi, – deydi koloniyaning nazorat-tartibot bo'linmasi kichik inspektori, kichik serjant Farhod Murodov.

Manzil-koloniyaning o'zida ham bir qator ishlab chiqarish korxonalari barpo etilgan. Xususan, poyabzal, kiyim-kechak, mebel ishlab chiqarish korxonalari, parrandachilik fermasi shular sirasidandir.

–Ular orasida poyabzal korxonasi salmoqli ahamiyat kasb etadi, – deydi man-

zil-koloniya boshlig'ining ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Bekzod Karimov. – Qaryib yuzga yaqin mahkumni band qilish imkoniyatiga ega korxonala-

da zamonaviy poyabzallar, ularning tagcharmi ishlab chiqariladi. Hozirgi paytda mahsulotlarga anchagina buyurtmalar berilgan.

Mebel ishlab chiqarish sexiga esa zamonaviy freyzerlar, dastgohlar o'rnatilgan. Ular yordamida zamonaviy eshik, rom, javonlar ishlab chiqarilmoqda. Ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalariga yetkazib berilayotgan ana shunday jihozlarning sifatilligi ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu manzil-koloniya faoliyati bilan tanishar ekansiz, bu yerda jazoni o'tayotgan shaxslarni tarbiyalash, ularga kasb-hunar o'rgatish, mahkumlarning bandligini ta'minlash borasida yetarlicha shart-sharoit yaratilganiga amin bo'lasiz.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV, o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.



СЛУЖБА ПРОБАЦИИ

КОНСТРУКТИВНЫЙ ДИАЛОГ

В целях моральной поддержки сотрудников, обеспечения здоровой нравственной среды в органах внутренних дел, в том числе в системе исполнения наказаний налажена работа с их семьями.

Недавно начальник пятого регионального центра координации Департамента исполнения наказаний при МВД подполковник Икром Шеров встретился с родителями сотрудников, несущих службу в колониях региона. В ходе встречи, прошедшей в

открытом и заинтересованном духе, было подробно сообщено о реформах, осуществляемых в системе, предоставляемых льготах в социальной защите личного состава.

Затем с докладами выступили оперуполномоченный по особо важным делам ДИН при МВД подполковник Илёс Турсунов и старший оперуполномоченный майор Элдор Болтабоев. Были затронуты вопросы служебной дисциплины, недопущения случаев нарушений закона, дискредитации высокого звания

сотрудника органов внутренних дел. Подчеркнута важность преданного выполнения возложенных обязанностей, вежливого обращения с гражданами. Разъяснены последствия коррупционных и иных противозаконных действий.

В завершение диалога от имени начальника департамента, руководства центра и колоний были вручены благодарственные письма и памятные подарки родителям сотрудников, являющихся примером в службе, профессионализме, преданности долгу.

Выслушаны мнения и предложения, направленные на укрепление морально-волевых качеств сотрудников, значение предоставляемых льгот. В целях дальнейшего укрепления подобного взаимодействия участникам встречи раздали специальные бланки с текстом обращения начальника колонии и номерами телефонов руководства.

Абдухошим ЗИЁДИНОВ, подполковник.

Навоийская область.



XAVFSIZ, ISHONCHLI, QULAY...



Bugungi kunda yirik megapolisga aylangan bosh kentimiz – Toshkent shahrida misli ko'rilma-gan o'zgarishlar ro'y ber-moqda. Ayniqsa, «O'z-bekiston mustaqilligining o'ttiz yilligi» nomli yangi metropoliten halqasining yerusti yo'nalishida 14 ta bekatning ishga tushirilishi ulkan tarixiy voqea bo'ldi.



Toshkent metrosining umumiy uzunligi 72 kilometrni tashkil etadi. Mavjud 50 ta bekat orqali poytaxtimizning 11 ta tumani o'zaro bog'lanadi. Yerusti yo'nalishidan tashqari, uchta yerosti – «Chilonzor», «O'zbekiston» va «Yunusobod» yo'nalishlari mavjud. Muhimi, qulay, tezkor va xavfsiz bo'lgan metro xizmatidan foydalanadigan yo'lovchilar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Yaqindagina ishga tushgan yerusti metrosining o'n uchinchi – «Turon» bekatidamiz. Bekat har doimgidek yo'lovchilar bilan gavjum. Zamo-

naviy qiyofada bunyod etilgan inshoot dizayn, qulaylik va xavfsizlik jihatidan bugungi kun ta-lablariga to'la javob beradi.

Metropoliten obyektlarida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish maqsadida IIV Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti Metropolitenda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari tun-u kun xizmat qilishmoqda.

– Biriktirilgan hududlarda, shu jumladan, metro bekatlarida xavfsizlikni ta'minlash uchun uch smenali xizmat tashkil qilingan, – deydi boshqarma boshlig'ining o'rinbosari – Jamoat xavfsizligi bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Hasan Haydarov. – Har smenada 480 nafar xodim xizmatga kirishadi. Joriy yilning birinchi choragida metropolitendan foydalanish qoidalarini qo'pol ravishda buzish bilan bog'liq 30 ta holat aniqlandi. Tezkor-qidiruv bo'limi xodimlari tomonidan esa 7 ta jinoyat «issiq izida» fosh etildi, qidiruvda bo'lgan 3 nafar shaxs aniqlanib, ushlendi.

Metropolitenda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi shaxsiy tarkibi orasida o'zining namu-nali xizmati bilan safdoshlariga o'rnak bo'layot-

gan xodimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bosh-qarmaning Metropoliten obyektlarida tartibotni tashkil etish bo'limi muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori, podpolkovnik Vyacheslav Xvan, 5-ba-talyon komandirining xizmat bo'yicha o'rinbosari, podpolkovnik Doniyorjon Ro'zmatov, 1-batalyon 3-otryad komandiri, podpolkovnik G'ofir Qur-bonboyev, safdorlar Aziza Xontemirova, Bunyod Yakubov, Javlon Nishonov va Umid To'xtayevlar shular jumlasidandir.

**Abu KENJAYEV,
o'z muxbirimiz.**



■ Ферганская область

ЦИФРОВИЗАЦИЯ – ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРЕСТУПНОСТИ



Без цифровых технологий сегодня не обходится практически ни одна сфера деятельности. Они активно внедряются и в систему органов внутренних дел, что способствует раннему выявлению преступности.

В рамках концепции «Цифровая безопасная махалля» по инициативе ОВД Фуркатского района и при поддержке районного хокимията в 34 махаллях установлены 2 115 камер видеонаблюдения. Для повышения раскрываемости преступлений и оперативного обмена информацией созданы мини-ситуационные центры с интеграцией камер в служебные кабинеты инспекторов профилактики. Кроме того, 500 камер, установленных в людных местах, подключены к дежурной части областного УВД, налажена работа единого ситуационного центра.

Год от года растет число туристов, посещающих Маргилан. Для обеспечения их безопасности широко используются цифровые технологии, устанавливаются камеры видеонаблюдения.



Недавно по инициативе начальника Ферганского областного УВД генерал-майора Азизбека Икрамова для распространения передового опыта в этом направлении был организован

учебный семинар, посвященный вопросам системной цифровизации.

Сотрудники ознакомились с деятельностью опорного пункта махалли Дўстлик города Мар-

гилана. На всех улицах схода граждан установлены камеры видеофиксации, подключенные к опорному пункту, что позволяет вести круглосуточное наблюдение. Инспектор профилактики имеет возможность из кабинета следить за ситуацией, и при необходимости принимать оперативные меры. Участникам семинара разъяснены моменты, на которые необходимо обратить внимание при осуществлении цифровизации, даны необходимые рекомендации.

В рамках семинара совместно с сотрудниками службы охраны Национальной гвардии проведено практическое занятие по предупреждению краж из объектов торговли. Состоялась тематическая презентация, на которой в режиме онлайн показана выгода от подключения к пульту службы охраны.

– Одной лишь установкой камер видеонаблюдения дело не заканчивается, это не дает большого эффекта, – говорит начальник информационной службы Ферганского областного УВД капитан Исмоилжон Шарипов. – Важное значение имеют марка оборудования, возможности качественной съемки, ракурс монтажа. К примеру, камеры, интегрированные в ОВД города Маргилана, не только обеспечивают видео- и звуковой ряд записываемого лица, но и одновременно выдают важную информацию о нем. Изображения с боди-камер сотрудников патрульно-постовой службы непрерывно передаются в центр. Это повышает эффективность нашей работы.

Абдувосит СИДИКОВ,
соб. корп.



XIZMATDAN TASHQARIDA

ISTE'DOD

Pastdarg'om tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, leytenant Shahlo Izzatova hunarmand G'ayrat aka hamda tikuvchi Mahbuba opalar xonadonida tug'ilib voyaga yetgan uch farzandning kenjasi. U qiziqishlari ortidan Samarqand davlat universitetining psixologiya yo'nalishini tamomlagan. Qolaversa, ota-onasidagi nozik did va mohir qo'llar sehri unga ham yuqqan.

– Tog'am uzoq yillar profilaktika inspektori bo'lib xizmat qilgan, podpolkovnik unvonida pensiyaga chiqdi, – deydi leytenant Shahlo Izzatova. – Ta'lim muassasasida ishlayotganimda psixologlarni ichki ishlar organlariga ishga olishayotganini eshitib, darhol hujjatlarimni topshirdim. Bu bolalikdagi orzuyimni amalga oshirish uchun yaxshi imkoniyat edi-da. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, tizimda psixolog sifatida xizmat olib bormoqdaman.

Shahlo psixolog sifatida sohaning o'ziga xos tomonlariga alohida e'tibor qaratib, ruhi tetik xodimning xizmat samaradorligi ham yuqori bo'lishini yaxshi tushunadi. Va buni xodimlarga ham anglata oladi. Bugun biz uning yana bir qobiliyati haqida to'xtalmoqchimiz.

– Psixolog inson ruhiyatini tahlil qilarkan, uning kasb-kori, oilasi, yaqinlari va azbaroyi qiziqqanidan butun borlig'i bilan sho'ng'ib ketadigan sevimli mashg'ulotlarini ham nazardan chetda qoldirmaydi, – deydi lavhamiz qahramo-

ni. – Men ham xodimlar bilan muloqot jarayonida shu jihatlarni sinchiklab o'rganishga harakat qilaman. Chunki astoydil ishtiyoq bilan kechuvchi mashg'ulot onlari har qaysi inson qalbini yorishtirib, ko'tarinki kayfiyat, ayricha zavq uyg'otadi. O'zim ham xizmat, uy ishlari, farzandlarimdan ortib, turfa xil munchoqli taqinchoqlar yasashni yaxshi ko'raman. Ularning eng birinchi sinovchisi, albatta, qizlarim Dilnura va Dilobar bo'ladi.

– Bo'sh vaqtim juda kam bo'ladi, – deydi Sh. Izzatova. – Ko'pincha kechqurunlari ayollar va qizlar uchun taqinchoqlar yasayman. Tabiiyki, bu payt charchoq seziladi. Ammo men shu hunarimdan kuch olaman. Vaholanki, ularni bittalab qadab chiqish osonmas. Aytgancha, taqinchoq yasashga berilib ketganimda ish stolim ustidagi mayda-mayda munchoq, mitti ko'zlar xuddi pildillab yugurib yurgan bolajonlarga o'xshab ko'rindi. Har doim shunday yoqimli tuyg'ular qanotida ajoyib taqinchoq yaraladi.

KO'NGILNING
KO'RKI

Ha, har birimizda iste'dod, salohiyat, yaratuvchanlik bor. Faqat uning tizgini ipak tolalardek nozik bo'ladi va uni ushlab olish o'zimizga, to'g'rirog'i, harakatimizga bog'liq. Zotan, leytenant Shahlo Izzatovaning

ko'nglidan mehr qo'ygan kasbi, xizmati, oilasi, sevgan mashg'uloti ko'rk berayotgan ekan, u tinimsiz harakatda, izlanishda ekanligiga ishonchimiz komil.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

FARZANDLAR OTALAR HAQIDA

ENG YAQIN DO'STIM,
MASLAKDOSHIM

Otam iste'fodagi mayor Eshquvvat Uralov ichki ishlar organlarining jinoyat qidiruv hamda tergov sohalarida xizmat olib borganlar. Hozir tumanimiz mahallalarida xizmat qilayotgan 2 nafar profilaktika inspektoriga yo'l-yo'riq ko'rsatib, maslahat berib turadilar.

Otam mening bolaligimdan eng yaqin do'stim, maslakhatgo'yim. Hayotda nimaga erishgan bo'lsam, barchasida padari buzruvorimning hissalar bor.

Oilada yagona o'g'il farzand bo'lganim uchun otam meni bolaligimdan mustaqil bo'lishga o'rgatdilar, hech qachon qaroringa qarshilik qilmadilar. 2016-yilda Jizzax davlat pedagogika institutini tugatganimdan so'ng, ota kasbini davom ettirish to'g'risida aytdim. Shunda:

– Har qanday kasbning o'ziga yarasha mashaqqati bor. Ayniqsa, ichki ishlar organi xodimi zimmasidagi vazifalar zarvorli. Qiyinchiliklarni yengib o'ta olsang, kam bo'lmaysan, – dedilar.

Otam pensiyaga chiqqanlaridan so'ng kasb-hunar maktabida o'quvchilarga huquqshunoslikdan ta'lim berdilar. Ayni paytda Nurota tumani hokimligida yurist lavozimida faoliyat ko'rsatyaptilar. Uyda ham huquqiy masalalarda yordam so'rab kelgan qo'ni-qo'shnilariga, mahalladoshlarga maslahat beradilar, yo'l-yo'riq ko'rsatadilar.

Qariyb 7 yildan buyon otamdan o'rganganlarimni amaliyotda qo'llab, tavsiyalariga quloq osib kam bo'lmadim. Shuning uchun otam mening idealim. Hayotda har jihatdan ularga o'xshagim keladi.

Sherzod ESHNIYOZOV,
Nurota tumani IIB JXX HPB
tahlil va muvofiqlashtirish guruhi
inspektori, kapitan.



▶ KO'CHAT EK, BOG' YARAT!

«YASHIL MAKON»GA MUNOSIB HISSA

Farg'ona viloyati ichki ishlar organlari xodimlari «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasidagi bahorgi daraxt ekish mavsumida faol ishtirok etishmoqda.

Marg'ilon shahar IIB shaxsiy tarkibi ham bo'lim hovlisi va atrofiga yuzlab ko'chatlar ekib, kichik

bog' va gulzorlar barpo qilishdi. Bundan tashqari, profilaktika inspektorlari ham o'zlarining xizmat uylari va huquq-tartibot maskanlari atrofiga yangi nihollar o'tqazishib, ushbu xayrli tashabbusga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Abdusot SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.
Farg'ona viloyati.



▶ ISLOHOTLAR AMALDA

TOZA HAVO – SOG'LOM HAYOT DEMAK

So'nggi paytlarda poytaxtimiz havosi ifloslanib borayotgani barchani birdek tashvishga solmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri shaharda transport vositalarining keskin ko'payib borayotgani tirbandlikda to'xtab turgan transport vositasi harakatlanayotgan ulovga nisbatan atmosferaga ko'proq zaharli tashlama chiqarayotgani, bilan bog'liq. Shu bois ushbu muammoli masalaga davlatimiz rahbari tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, Prezidentimizning «O'zbekiston – 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmonining 27-bandiga asosan, har oyda bir marotaba keng jamoatchilik hamda ekofaollar, ekologiyaga avtomobildan chiqindi gazlarini kamaytirish uchun zararli ta'sirini kamaytirish uchun Toshkent shahrida avtomobillar harakatlanishi jamoat transportlari va maxsus shoshilinch tez yordam xizmatlaridan tashqari «avtomobilsiz kun» jamoatchilik loyihasi amalga oshirilmoqda.

Toshkent shahrida joylashgan respublika va ijro

etuvchi hokimiyat organlarining bir qator rahbar va boshqa xodimlari ish joyiga jamoat transportlarida kelib, shaxsiy namuna ko'rsatishdi. Shunday ekan, shahrimiz aholisi va mehmonlarini ushbu aksiyada faol ishtirok etishlarini tavsiya etib qolamiz.

Yana bir muhim yangilik. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Atmosfera havosiga transport vositalarining salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»-gi qaroriga ko'ra, endilikda 2024-yilning 1-iyun kunidan boshlab «Ekologik transport» tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladi. Bu tizim 2030-yilgacha davom etadi.



Birinchi bosqichda Toshkent shahrida (2024–2026), ikkinchi bosqichda Nukus shahri va viloyatlar markazlari hamda zaruratga ko'ra, alohida ekologik zonalar, jumladan, sayyohlik markazi, tabiat qo'riqxonasi, sog'lomlashtirish va dam olish maskani va boshqalarda (2026–2028), uchinchi bosqichda esa boshqa barcha hududlarda (2028–2030) amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Mazkur tizimga ko'ra, hududlarda atmosfera havosi bilan bog'liq real ekologik holatlardan kelib

chiqib, ilg'or xorijiy tajriba va innovatsiyalar asosida yashil, sariq, qizil rang bilan belgilangan toza (yashil), o'rta (sariq) va zararli (qizil) ekologik zonalarga ajratib boriladi.

Ekozonaga muvofiq bo'lmagan transport vositalaridan ekologik zonalar hududida foydalanish tartibiga rioya etmaganlik uchun javobgarlik belgilanadi. Jarima mablag'lari esa mamlakatning ekologik holatini yaxshilashga va atrof-muhitni muhofaza qilishga maqsadli yo'naltiriladi. Ekologik stikerlarni olish

va diagnostik tekshiruvdan o'tish jarayoni hududlardagi YHXX bo'linmalarida bepul amalga oshiriladi.

O'ylaymizki, ushbu yangilik amaliyotga joriy etilganidan so'ng yurtimiz, xususan, poytaxtimizda ekologik vaziyat barqarorlanishi, havosi tozalanishida ijobiy tomonga o'zgarish bo'ladi. Albatta, bu xayrli ishning risoladagidek amalga oshishida har birimiz bu mening uyim, bu mening aziz Vatanim, deya faol ishtirok etsakkin ko'zlagan maqsadga erishamiz.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.
Toshkent shahri.



12 АПРЕЛЯ – ВСЕМИРНЫЙ ДЕНЬ АВИАЦИИ И КОСМОНАВТИКИ

Космодром Байконур – это «Ташкент – 90»

Когда летом 1954 года на заседании правительства бывшего союза обсуждался вопрос о сооружении полигона для испытаний и запуска межконтинентальных ракет или, как его впоследствии стали называть, космодрома, доступ к этой информации имел крайне ограниченный круг так называемых «засекреченных».



Предстояло сделать выбор между тремя географическими точками, выбор пал на вариант сооружения полигона в соседних с землями современного Узбекистана казахстанских степях. Это была малонаселенная местность вблизи реки

Сырдарья, где пасли стада овец и коз. Базой для освоения этих земель стала столица Узбекистана – Ташкент, поэтому в проектно-исследовательской документации научно-исследовательский и испытательный полигон НИИП-5, то есть будущий космодром, имел кодовое наименование «Ташкент-90».



Судьба их связала с нашей землей

Имена космонавтов стали широко известны, получили небывалую популярность во всем мире. Оказалось, судьбы некоторых из них удивительным образом связаны с узбекской землей.




Один из первых советских космонавтов, профессор, доктор технических наук **Константин Феокистов** во время Второй мировой войны шестнадцатилетним юношей ушел добровольцем на фронт. После ранения был эвакуирован для лечения в древний узбекистанский город Коканд. Там он с отличием окончил 10-й класс школы № 2.



Юрий Гагарин. На одной из оживленных улиц Ташкента воздвигнут памятник первооткрывателю космоса.

Космонавт-исследователь **Салиджан Шарипов** работал на Международной космической станции в составе экипажа американского космического корабля «Шаттл-Индевор».



Владимир Джанибеков, совершивший пять полетов в космос, родился близ Ташкента, в Бостанлыкском районе, и окончил Ташкентское суворовское училище. В центре столицы Узбекистана, на площади Космонавтов, ему установлен бронзовый бюст.




На каждом космическом корабле есть частица Узбекистана

Узбекские ученые сотрудничают с коллегами из США, России, Израиля, Японии, Германии, Южной Кореи, Индии, Великобритании, Казахстана и Франции.

Наряду с Германией, Италией, Канадой, Швецией и еще пятнадцатью государствами Узбекистан играет не последнюю роль в реализации масштабной международной космической программы «Интербол».



Можно с определенностью сказать, что на каждом взлетном комплексе космодрома Байконур и на каждом космическом корабле, взлетающем с него, есть частица Узбекистана.



MUNAJJIMLAR BASHORATI

(15-apreldan 21-aprelgacha)



Qo'y. Ushbu hafta sizga uzoq kutilgan sokin hayotni tuhfa etadi. Har qanday vaziyatda o'zingizni tutib, og'irroq bo'lishga harakat qiling. Bu davr yangi rejalar tuzish va ularni amalga oshirish yo'llarini izlash uchun juda qulay. Faqat hozircha o'z maqsadlaringizni sir saqlab turganingiz ma'qul.



Buzoq. Katta tajribaga ega odamlarning maslahatiga jiddiy e'tibor qarating. Ular sizga to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Hafta davomida barcha ishlarni to'g'ri taqsimlashga harakat qiling. Yaqinlaringizdan biri sizga pand berib qo'yishi mumkin. Dam olish kunlari hushyor va kuzatuvchan bo'lish talab etiladi.



Egizaklar. Bu hafta e'tibor yetishmasligidan nolimasangiz ham bo'ladi. Ayni dam kelgusi hayot poydevorini mustahkamlash uchun qulay davr. Taqdir sizga yashil chiroqni ko'rsatmoqda, imkoniyatni qo'ldan boy bermang. Biroq yangi loyihani amalga oshirish yoki biron taklifni qabul qilishdan oldin chuqur mulohaza yuriting.



Qisqichbaqa. Kelayotgan haftada sizdan tirishqoqlik va serg'ayratlik talab etiladi. Har bir bajarayotgan ishingiz uchun yelkangizga katta mas'uliyat yuklanganini zinhor unutmang. Bu davrda ishga oid kelishuvlar omadli bo'lib, yangi tanishuvlar esa uzoq muddatli va mustahkam bo'ladi.



Arslon. Hafta davomida atrofdagi odamlar, hamkasblar, shuningdek rahbariyatdan e'tirof va iliq fikrlar qabul qilasiz. Muzokaralar va foydali shartnomalarni imzolash uchun payshanba va juma kunlari maqbuldir. Ish joyida mehnatsevarligingiz munosib rag'batlantiriladi.



Parizod. Ishga sho'ng'ib ketish hayotingizning qolgan bo'g'iniga ta'sir ko'rsatib, ularga vaqtingiz yetmay qolishi mumkin. Agar hayotda o'z juftingizni topmagan bo'lsangiz, bu davrdagi yangi tanishuvlardan ehtiyot bo'ling. Juma va shanba kunlari biroz behalovatlik va yugur-yugurlar kuzatiladi.



Tarozi. Bu davrda salomatligingiz yomonlashishi yoki keraksiz mojarolarning yuzaga kelishi mumkin. Hatto zerikarli kundalik vazifalar va maishiy yumushlardan ham yoqimli jihat topishga harakat qiling. Haftaning ikkinchi yarmida yoqimli va kutilmagan yangilik olasiz.



Chayon. Ushbu haftaning boshida kuchli aqliy zo'riqishni talab qilmaydigan ishlar bilan band bo'lasiz. Bu davrda sizni ham yaxshi, ham ko'ngilsiz hodisalar kutmoqda. Yaqinlar bilan kelishmovchiliklar va hamkasblar orasidagi norozilik kayfiyatingizning buzilishiga olib keladi. Imkon qadar iltifotli va sabrli bo'ling.



O'qotar. Ayni palla salomatlikka e'tibor qarataish uchun kerakli va qulay davr. Turli yig'inlardan, odamlar gavjum joylardan uzoq turing. Imkoniyatlaringizdan ortiq darajada harakat qilmang, yuzaga kelgan muammolarni yuragingizga yaqin olmang. Payshanba kuniga borib vaziyat yaxshi tarafdagi o'zgaradi.



Tog' echkisi. Bu haftada amalga oshirilgan loyiha va tashabbuslar o'z qadriga ega bo'ladi. Seshanba va payshanba kunlari foydali jamoat ishlari uchun maqbul davr. O'z rejalarining rahbariyat bilan hozircha o'rtoqlashmang, bu ishdagi mavqeingizga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Dam olish kunlari sevimli mashg'ulotingiz bilan shug'ullaning.



Qovg'a. Hafta boshidagi faol sa'y-harakatlaringiz kutilgan natijalarni beradi. His-tuyg'ularingizni nazorat ostida ushlang, aks holda keyin afsus qilasiz, lekin kech bo'ladi. Payshanba va juma kunlari asab buzariqliklar kuzatilishi mumkin.



Baliq. Xizmat joyidagi vaziyat keskin tus olib, hafta biroz og'ir kechadi. Har bir so'zingizni o'ylab gapiring, suhbatni tanqid va e'tirozdan boshlamang. Siz bilan raqobat qiladiganlar asablaringizni qitiqlab ko'rishini mumkin. Biroq haftaning ikkinchi yarmida barcha muammolar o'z-o'zidan hal bo'lib, siz zavq va g'ayrat bilan o'z yumushlaringizga kirishasiz.

ORZULARDAN BAXT TOPGAN AYOL

Mavludaxon Jalolova Farg'ona viloyati Furqat tumanida tug'ilib kamolga yetgan. Oilada yettinchi, ya'ni, kenja farzand bo'lgani uchunmi, erka, tabiatan sho'x va tirishqoq qiz bo'lib ulg'aydi.

U maktabga borgan payti akasi Solijon IIV Akademiyasiga o'qishga kirdi. Ota-onasi qasamyod qabul qilish marosimiga jajji Mavludaxonni ham olib bordi. O'shanda, harbiy libos kiyib, ko'zidan o't chaqrab turgan xizmat kiyimidagi ko'rkam qizlarga o'zga-cha havas va ishtiyoq bilan termildi. Shu tariqa, uning murg'ak qalbida ilk orzu kurtak yozdi.

Bu orzu uning o'quvchilik yillarida doimo hamroh bo'ldi. Har kuni akasi ishdan kelganida unga havas bilan qarar, «Kelajakda, albat-ta, men ham ana shunday forma kiyaman», deya orzu qilishdan to'xtamasdi. Maktabni tamomlagach, hech ikkilanmasdan, IIV Akademiya-siga hujjat topshirdi.

– Dastlabki yili o'qishga kira olmagan bo'lsam-da, qayta tayyorgarlik ko'rib, ikkinchi yili yana hujjat topshirdim, – deydi lavhamiz qahramoni. – Nasib qilgan ekan, Akademiyaga o'qishga kirib, 2016-yil muvaffaqiyatli tamomladim. Ilk xizmat

faoliyatimni Farg'ona shahar IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limida boshladim. Hozir shu bo'limda katta surishtiruvchi lavozimida xizmat qilyapman.

Orzulari ijobat bo'lgan lavhamiz qahramoni o'z baxtini ham IIV Akademiyasida uchratdi. Farg'ona viloyati-ning Qo'shtepa tumanidan bo'lgan Fayzullo Rahmonov bilan bir-biriga ko'ngil qo'yib, keyinchalik oila qurdi. Bugun ularning mo'jazgina baxt qo'rg'onida 2 nafar farzand voyaga yetmoqda.

Mayor Fayzullo Rahmonov hozirda Oltiariq tumani IIB boshlig'ining birinchi o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

– Akam Solijon Jalolov Farg'ona viloyati IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati boshlig'ining birinchi o'rinbosari lavozimida xizmat qilib, 2021-yilda podpolkovnik unvonida pensiyaga chiqdi, – deydi mayor Mavludaxon Jalolova. – Haligacha mendan maslahatlarini ayamay keladi.



Kasbga sadoqatli, intizomli, jamoadoshlar bilan ahil, fuqarolar bilan esa xushmuomala bo'lish kerakligi haqida maslahatlar berishdan charchamaydi.

Akasining o'g'it va maslahatlariga amal qil-

gan Mavludaxon aslo kam bo'lgani yo'q. Yosh bo'lsada, xizmatda qator yutuqlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Yaqinda «Ayollari e'zozlangan yurt» shiori ostida o'tgan ichki ishlar organlarining III respublika xotin-qizlar

forumi doirasidagi «Fidoi ayol» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

SOG'LOM TANDA – SOG' AQL

CHORSHANBA – SALOMATLIK KUNI

Samarqand viloyati Ichki ishlar organlarida haftaning har chorshanba kuni «Salomatlik kuni» deb e'lon qilingan.

Shu munosabat bilan viloyat IIB Tibbiyot bo'limi shifokorlari tomonidan Salomatlik patruli brigadalari tashkil etilib, hududlarda xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishmoqda.

Navbatdagi marshrut Oqdaryo tumani IIB bo'ldi. Shifokorlar tumanga borib, yurak-qon tomir, qandli diabet va boshqa endokrin tizimi kasalliklari bilan kasallangan xodimlarni davolash-sog'lomlashtirish ishlari olib borildi.

Xodimlar turli tekshiruvlar, kardiolog, terapevt ko'riklaridan o'tkazilib, kasalliklarning oldini olish yuzasidan tushunchalar berildi hamda bir qator xodimlar bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazildi.

O'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.



OTA IZIDAN

O'G'IL TANLAGAN YO'L

(Boshlanishi 1-betda).

Rafiqasi Dildoraxon bilan to'rt farzandni voyaga yetkazayotgan Sherzodbek Ishanxanovning katta o'g'li Muhammadislom o'z yo'lini otasiga qarab tanladi va u kabi bo'lishni orzu qilib o'sdi. O'g'lining oilaviy sulolani davom ettirish istagini eshitgan ota juda xursand bo'ldi. Hozir u IIV Andijon akademik litseyining 2-bosqichida tahsil olmoqda.

– Men otam kabi osoyishtalik posboni bo'lishni xohlayman, – deydi Muhammadislom. – Litseyni tamomlagach, IIV Akademiyasiga o'qishga kirmoqchiman. Ichki ishlar organlarida xizmat qilish oson emasligini, mashaqqatlarga to'la ekanini yaxshi bilaman. Lekin xalqimiz himoyachisi bo'lishni, xavfsizlikni ta'minlashga o'z hissamni qo'shishni xohlayman.

Onasi Muhammadislomni fikridan qaytarmoqchi bo'lib, maktabni tugatgan zahoti o'zi istagan oliygohga hujjat topshirishi mumkinligini aytdi, lekin u o'z so'zida qattiq turib oldi va osoyishtalik posboni bo'lishga qat'iy qaror qildi. Bu yil u litseyni tamomlaydi, hozirda IIV Akademiyasiga o'qishga kirish uchun qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda, sport bilan shug'ullanmoqda.

Insonning maqsad va orzulari oiladan boshlanadi. Sherzodbek ham o'z o'g'li uchun munosib o'rnak bo'ldi. O'g'il ota izidan ketishdek sharafli yo'lni tanladi.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Suratda: podpolkovnik Sherzodbek Ishanxanov o'g'li Muhammadislom bilan.

Andijon viloyati.

★ Ветераны — наша гордость

ДЕЛО ЕГО ЖИЗНИ

Много теплых слов можно сказать о ветеранах, проходивших службу в отделе профилактики правонарушений Андижанского ГОВД. Отлично себя зарекомендовал подполковник Нодирбек Нусратов, прошедший путь от территориального инспектора профилактики, до начальника отдела службы профилактики.

Благодаря наставникам, территориальным инспекторам профилактики майору Абдурахману Ниёзову и капитану Хакимжону Хожиханову, стал настоящим профессионалом своего дела. Отдал более двадцати лет службе профилактики. За эти годы воспитал ряд достойных учеников. В их числе майоры Илхомжон Косимов, Алишер Абдупаттоев и Жахонгир Ходжаев.

В 2017 году подполковник Н. Нусратов вышел на заслуженный отдых, но, по-прежнему остается в строю, делится знаниями и опытом с молодыми коллегами. В последнее время он работает старшим преподавателем кафедры метрологии, стандартизации и управления качества продукции Андижанского института машиностроения. Опыт, накопленный ветераном за годы службы в органах внутренних дел, помогает ему в преподавательской деятельности.

— Стараюсь воспитывать студентов в духе патриотизма, прививаю им навыки трудолюбия, ответственности за порученный участок работы, — говорит Нодирбек Нусратов. — С этой целью провожу экскурсии в музей боевой славы УВД Андижанской области, организовываю встречи с молодежью, рассказываю ребятам о своем служебном пути, призываю к честности и порядочности.

Молодым сотрудникам он советует: если выбрали службу — надо четко исполнять свой долг, не останавливаться на достигнутом, развиваться, совершенствоваться. Тем ребятам, которые сейчас на передовой, надо быть всесторонне подготовленными. Нужны физическое развитие и правовая подготовка.

Сколько молодых кадров выросло под началом Нодирбека



Нусратова сосчитать сложно, со многими он поддерживает отношения до сих пор.

— Бывших сотрудников не бывает. Если ты однажды решил защищать спокойствие граждан и научился этому, самое важное, что ты можешь сделать как ветеран, — передать свой опыт и знания молодежи, — говорит Н. Нусратов. — Чтобы новые поколения сотрудников правоохранительных органов становились профессионалами, чуткими, готовыми к подвигам, которые случаются каждый день.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.

■ Самаркандская область

Передавать профессионализм молодежи

Старший инспектор по вопросам с женщинами Тайлакского района майор Гулчехра Акбарова уверена, что нынешнему поколению сотрудников внутренних дел нужно нести службу с честью. За ее плечами 27 лет службы в ОВД, опытом которой она охотно делится с молодыми сотрудниками.



В ряды сотрудников органов внутренних дел Гулчехра попала сразу после окончания Самаркандского государственного университета в 1997 году. Все эти годы занимала разные должности, в основном работала инспектором по делам несовершеннолетних, сейчас помогает женщинам в защите их законных прав.

Коллеги ценят Г. Акбарову за ее мудрые советы и знания. К ней часто обращаются молодые сотрудницы, которые тоже являются инспекторами по вопросам с женщинами.

— Молодым сотрудникам трудно избежать ошибок, — говорит майор Г. Акбарова. — Чтобы ускорить их профессиональное и личностное развитие на помощь приходят опытные наставники. Кроме того, они помогают обрести чувство уверенности, оказывают всестороннюю поддержку.

Молодежь постоянно ищет пути для реализации целей и достижения успеха. Опыт старшего поколения иногда может стать ценным ресурсом для поддержки молодых людей в преодолении трудностей и достижении своего потенциала. В этом Гулчехра Акбарова не раз убеждалась на протяжении всех лет службы.

Соб. корр.

★ «Яшил макон»

В РАМКАХ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОГО ПРОЕКТА

В городе Самарканде прошла акция по высадке саженцев декоративных деревьев.

Вопросы оздоровления экологической среды и озеленения в настоящее время обрели актуальное звучание. В этом направлении принят ряд указов и постановлений Президента, реализуются государственные программы.

По инициативе УКД ОВД города Самарканда в махаллях областного центра высажены 5000 саженцев. В этом благородном деле приняли участие руководство и личный состав управления.

Мероприятия по реализации общенационального проекта продолжают.

Соб. корр.



ETNOTURIZM

Vobkent tumanidagi «Shirin» qishlogʻi qadimgi Zarafshon daryosi oʻzanida joylashgan boʻlib, taxminan 2500 yillik tarixga ega. Rivoyat qilinishicha, qishloq Bibi Shirin nomi bilan bogʻliq. U tabib boʻlgan va odamlarni giyoh bilan davolagan. Qolaversa, oʻsha davrda toshma toshgan, har xil yaralar chiqqan odamlar «Bibi Shirin» qudugʻi suvidan ichib shifo topgan.

Qishloq aholisi azaldan dehqonchilik va savdo-sotiq bilan shugʻullanib kelgan. Bu yerda bir qator madaniy meros obyektlari va milliy urf-odatlar hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Shuningdek, qishloqda quruq mevalar, shirinliklar milliy va hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash avlodan-avlodga oʻtib kelayotgan meros sanaladi. Qishloq ayollari ushbu mahsulotlarni tayyorlashda milliy kuy-qoʻshiqlar va laparlarni ijro etib, mehnat qilishni odatga aylantirishgan.

Shu bilan birga, qishloqda turizmni rivojlantirish hamda sayyohlar uchun qishloq hayotini koʻrsatib berish maqsadida hozirgi kunda etnik qishloq turizm klasterini tashkil etish boʻyicha bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, tadbirkorlar koʻmagida «Shirin» qishlogʻi etnoturistik hududga aylantirilmoqda. Ayni paytda bu yerda mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilish uchun qishloq aholisining turmush tarzi, etnik tarkibi jamlangan mehmon uylari qurilib, barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Qishloqda turizm maskani, shoʻrdanak va nisholda tayyorlash mahorat darslari, qadimgi taomlarni pishirish, tandirda non yopish, asal tortish jarayonlari, koʻhna tosh tegirmonda yorma tayyorlash va halim pishirish, qadimgi urf-odatlar namoyishi, milliy hunarmandchilik bilan band xonadonlar va shunga oʻxshash koʻplab namoyish turlari tashkil etilmoqda.

– Mahallamizda turizm qishlogʻi barpo qilingani bu hududning oʻziga xos tarixi, qadimiy inshootlari va milliy urf-odatlar saqlanib kelinganidan, – deydi «Shirin» mahalla fuqarolar yigʻini raisi Mirzohid Halimov. – Mana, ikki-uch yildirki, qishloqda ancha ijobiy

ishlar qilindi. Tadbirkorimiz Dilnoza Rahimova turmush oʻrtogʻi bilan birgalikda «Shirin ethno house» oilaviy korxonasini ochdi. Yana ikki tadbirkorimiz oilaviy mehmonxonani ishga tushirdi. Sayyohlar «Etnoturizm» yoʻnalishida tashkil etilgan qishloq hayoti bilan tanishibgina qolmay, shu yerning oʻzida milliy taom pishirish jarayonini ham oʻz koʻzlari bilan koʻrib tanovvul qilishadi. Yaqin orada ot va tuyada sayr qilish yoʻnalishi ham yoʻlga qoʻyiladi. Ayni paytda «Shirin» qishlogʻiga viloyatda faoliyat yuritib kelayotgan «Authentic travel» turistik tashkiloti tomonidan 500 nafardan koʻproq chet ellik sayyohlar tashrifi yoʻlga qoʻyilishi koʻzda tutilgan. Keyingi yillarda respublikaning boshqa turistik kompani-



bugʻdoy unini tortish, tandirda non, somsa va boshqa yeguliklar yopish, mevali bogʻ va tokzor uzumzor barpo qilish, alohida oʻtovlar tikib tayyorlash, chorvachilik tarmogʻida-

gi ishlarni koʻrgazmali tashkil etish, mevalarni quritish va qadoqlash, jun yigirish va jun mahsulotlarini tayyorlash boʻyicha mahorat saboqlarini berish yoʻlga qoʻyilgan. Shu-

shoʻrdanak va nisholda singari milliy mahsulotlarni tayyorlash uslubi ham sayyohlar oqimini oʻziga jalb qilmoqda.

– Qishloqda mahalliy tashabbuskorlar tomoni-

SAYYOHLARNI CHORLAYOTGAN «SHIRIN»



yalarini ham jalb qilgan holda, sayyohlar sonini 2000 nafarga yetkazish rejalashtirilgan.

Tadbirkor D. Rahimova tashkil etgan «Shirin ethno house» oilaviy korxonasi tomonidan oʻnta oʻtov qad rostlagan. Yana qishloq udumi saqlangan uylar ham tiklangan. Bu yerda qadimiy tegirmonda makkajoʻxori va



ningdek, alohida suv havzasi va baliqchilik, ogʻilxona va unda uy hayvonlari parvarishi olib borilayotgani ham mehmonlar qiziqishi va hayratini oshirishi tabiiy. Tashrif buyuruvchilarga uch mahal milliy taomlarimiz ularning koʻz oldida pishirib beriladi.

Etnoturizm qishlogʻi boʻylab hamroh-tarjimon bilan birga sayohat qilish, avtotransport vositalari uchun avtoturargoh, qishloq atrofidagi suv havzalari va koʻllarda baliq ovi tashkillashtirilgani, etnoturizm markazida qadimgi sandal oʻrnatilgan uylar, tandirda non yopish, oʻchoqda ovqat tayyorlash jarayoni,

dan hunarmandchilik turlari boʻyicha markazlar tashkil etilmoqda, – deydi hududiy profilaktika inspektori, katta leytenant Jahongir Xayrullayev. – Kulolchilik, kashtadoʻzlik, zardoʻzlik, gilamboflik, patdoʻzlik, temirchilik, yogʻoch oʻymakorligi, jundan ip yigirish, mato toʻqish, milliy qoʻgʻirchoqlar yasash, miniatyura sanʼati, paxtadan chopon, yostiq, koʻrpacha, nimcha tayyorlash, savat toʻqish, boʻyraboflik, qadimiy usulda namat (kigiz) tayyorlash shular jumlasidandir. Unutilayotgan yoʻrgam, jagʻir-bugʻir, yopma baliq, moshxoʻrak, goʻshtnut, qiymali atala, uzmantoy, gʻilmindi, gʻalmana, anor va piyozdan tayyorlangan salat, piyova, olxoʻri doʻlma, qaymoq shoʻrva, shopirma, qoqirim, tuxumli joʻxori, oʻmoch, tuxum hasip, bugʻlama barra, kifta shoʻrva, doʻndirma kaboblarni tayyorlovchi xonadonlarni tashkil etish koʻzda tutilgan. Mazkur xizmatlarning tashkil etilishi orqali 500 nafardan ortiq yangi ish oʻrinlari yaratiladi.

Qisqasi, qishloqda bajarilayotgan ishlar koʻlami hali keng. Ayniqsa, qishloq ayollari folklor jamoasi tuzilib, sayyohlarga kuy-qoʻshiqlar, marosimlar, qadriyatlar va anʼanalarni koʻrsatib beruvchi chiqishlar tashkil etilishi, avgust oyining ikkinchi dekadasi «Asal sayli» festivalining oʻtkazilishi rejalashtirilgan.

Mirzoqul AHADOV,
oʻz muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



GADJETLAR VA OVQAT HAZM QILISH



Mutaxassislar ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib yoki televizor tomosha qilib ovqatlanish sog'liqqa zararli, deyishadi. Bu nima uchun xavfli va u organizmga qanday zarar yetkazishi mumkin?

Gap shundaki, agar biz chalg'isak, miyamizning to'yinganlik haqidagi signallariga to'g'ri javob bermaymiz va natijada ko'p ovqatlanamiz. Bundan tashqari, ko'pincha odamlar ko'p miqdorda kaloriya iste'mol qilishadi. Ovqatlanish foydali bo'lishi uchun uni boshqa ishlardan ajratib turish kerak. Bu nafaqat televizor tomosha qilishni, balki Internetdagi yangiliklarni ko'rishni, ish joyidagi suhbatlarni o'qishni va boshqalarni ham o'z ichiga oladi.

Televizor ko'rganda yoki kompyuterda ishlayotganda miyamiz chalg'iydi. U ovqatni qanday qabul qilish jarayoniga e'tibor qaratmaydi. Buyuk Britaniyalik olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, ovqatlanish paytida elektron qurilmalar yoki televizor tomosha qilish bilan chalg'itilgan kishi ovqatlanishga e'tibor qaratgan kishiga qaraganda taxminan 20 foiz ko'proq ovqat yeydi.

Qolaversa, ovqatlanish paytida boshqa narsalarga e'tiborni chalg'itish ovqatni siqib chiqarishga xalaqit beradi. Bu ham ilmiy tadqiqotlar bilan isbotlangan. Bu



ovqat hazm qilish jarayonini buzishi mumkin. Qisqa muddat ichida bu ovqat hazm qilish qiyinchiligi va kasalliklariga olib keladi, istiqbolda esa oshqozon-ichak kasalliklariga sabab bo'lishi mumkin.

Nima uchun ovqatlanish paytida chalg'imaslik muhim? Oziq-ovqat to'liq hazm bo'lishi hamda barcha mikro va makronutrientlar to'liq o'zlashtirilishi uchun bir necha bosqichlardan o'tishi kerak.

Haqiqatan ham, ovqat hazm qilish jarayoni siz ovqatni ochishdan ancha oldin boshlanadi. Hamma narsa siz ovqat haqida o'ylagan paytdan boshlangan.

Oziq-ovqat haqida o'ylash uning ko'rinishi yoki hidi shilim, ya'ni oshqozon suyuqligini chiqarishni (kamida 50 foiz), ishtahani oshirishni rag'batlantiradi. Ovqatlanish rejimiga rioya qilish ovqat hazm qilishning birinchi qadamini maksimal darajada muvaffaqiyatli o'tkazishga yordam beradi.

Ovqat hazm qilish og'izda davom etadi. Bu yerda dastlab ovqat hazm qilish jarayoni sodir bo'ladi. Uning asosi ovqatni yaxshilab chaynashdir. Amilaza va lipaza fermentlari yordamida uglevodlar va yog'lar parchalanadi. Boshqa ovqat hazm qilish organlari ham shu vaqtda tayyorgarlik ko'rishni boshlaydi. Biz ovqatni chaynayotganda, uning tarkibi tahlil qilinadi va organizm o'ziga moslashishni

boshlaydi, ya'ni ovqat hazm qilish sharbati kimyoviy tarkibini o'ziga xos talablarga mos ravishda ajratib beradi. Turli xil ta'mlar ovqat hazm qilish organlari – oshqozon, safro, oshqozonosti bezlari, ichakni faollashtiradi.

Agar siz ovqatni yomon chaynasangiz, miyangizga to'yinish markazlariga signal yuboradigan chaynash mushaklari to'liq ishlamaydi. Oziq-ovqat bilan yaxshi aloqa yo'qligidan ovqatlanish mexanizmi ishlamaydi.

Ko'rinadiki, ovqat hazm qilishning dastlabki ikki bosqichi, ya'ni ovqatni tayyorlash va chaynash, butun oshqozon-ichak tizimining asosiy bosqichidir. Chunki aynan shu bosqichda organizm barcha ozuqa moddalarini iste'mol qilishga tayyorlanadi.

Agar oshqozon-ichak tizimining bir qismi ishlamay qolsa, butun o'zlashtirish jarayoni buziladi. O'zlashtirish jarayonining buzilishida organizmning qolgan tizimlari bilan bog'liq muammolarni: immunitetning pasayishi, tez-tez yuz beradigan ORSV, uzoq muddatli tiklanishni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, zararli moddalarni chiqarib tashlash tizimiga ta'sir ko'rsatib, badandan yoqimsiz hid chiqishi, boshda tumanlik, e'tibor va diqqat bilan ishlash qiyinligi, shishlar paydo bo'lishiga, vitaminlar va minerallarni singdirishning buzilishi, surunkali charchoq kabilarga sabab bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytmoqchimizki, 20 daqiqaga sevimli telefoningizni yoningizga qo'ying, televizorni yoq-mang va kompyuter oldida ovqat yemang. Nonushta, tushlik yoki kechki ovqatdan zavqlaning.

Muhabbat AMINOVA,
IIV Tibbiyot boshqarmasi
Reabilitatsiya markazi
diyetolog shifokori.

ПРИВЫЧКИ ВО ВРЕМЯ ЕДЫ

Вредные:

пропуск завтрака;
переедание;
«заедание» стресса;
просмотр телевизора во время еды;
поздние перекусы вечером;
доведение себя до чувства голода;
есть слишком быстро.



Полезные:

начинать день с завтрака;
питаться регулярно;
больше продуктов, богатых пищевыми волокнами;
употреблять фрукты и овощи;
есть рыбу;
потреблять жиры разумно;
меньше сахара.



ПОЧЕМУ МОЛОКО ПЛОХО СОЧЕТАЕТСЯ С ДРУГИМИ ПРОДУКТАМИ?

С возрастом в организме человека снижается выработка лактазы – фермента, который расщепляет молочный сахар, лактозу. Именно из-за этого люди ощущают тяжесть и вздутие после употребления молока: это значит, что молоко плохо переваривается.

Сложнее всего организму придется, если запивать молоком, к примеру, мясо или бобы. Сочетание двух белковых продуктов – серьезная нагрузка для пищеварительной системы. Самой нежелательной комбинацией является молоко с белым хлебом, после такого перекуса не избежать метеоризма и прочих неприятных последствий.

Взрослым людям полезнее употреблять в пищу кисломолочные



продукты. В процессах брожения лактозу «побеждают» молочнокислые бактерии, облегчая работу ЖКТ.





IIV Madaniyat saroyi Ashula va raqs ansambli tomonidan har yili respublikamiz bo'ylab xayriya konsertlari o'tkazish an'anaga aylangan. Ayni kunlarda ham mazkur ansamblning xushovoz xonandalari o'zlarining dilrabo kuy-qo'shiqlari bilan qalblarga bahoriy iliqlik baxsh etishmoqda. Xususan, Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida bo'lib o'tgan konsert dasturlarida ichki ishlar organlari safida xizmat qilgan va o'z burchini ado etish chog'ida halok bo'lgan xodimlarning oila a'zolari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi. Xalq orasida bo'lib, odamlar qalbiga quvonch baxsh etayotgan konsert dasturlari davom etmoqda.



2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

IMKON IZLAYOTGAN IQTIDOR

Iqtidor insonga berilgan noyob ne'matki, uning yuzaga chiqishi uchun ham imkoniyat zarur. Yoshlarimiz baxtiga mamlakatimizda qobiliyatli o'g'il-qizlarimizning nafaqat zamonaviy bilim olishi, balki o'z iqtidorlarini namoyish etishi uchun ham keng imkoniyatlar yaratilmoqda. IIVning Ixtisoslashtirilgan maktab-internatida ham bilimli va iqtidorli yoshlar talaygina. Xususan, Anvar Izzatov va Shohjahon Farhodov ana shunday a'lochi va iqtidorli o'quvchilar safida. Ikkisi ham umumta'lim fanlarini a'lo baholarga o'zlashtirish barobarida, sportning bir nechta turlari bilan muntazam shug'ullanishadi. Ular ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ham faol.

– Ta'lim muassasamizdagi iqtidorli yoshlarga to'g'ri yo'nalish berib, qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda ko'maklashish faoliyatimizning asosini tashkil etadi, – deydi ingliz tili o'qituvchisi Abrorxo'ja Mo'minxo'jayev. – Bizning zimmamizga millatimizning ertangi kuniga mas'ul bo'ladigan yoshlarga ta'lim berishdek ulkan va



sharaffli vazifa yuklatilgan. Bu borada bor kuch va imkoniyatimizni ishga solib, ta'lim beramiz. Yaqinda Anvar Izzatov va Shohjahon Farhodovning Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan beriladigan chet tilini bilish darajasi to'g'risidagi «B1» darajali sertifikatni qo'lga kiritishgani quvonarli holdir.

– Matematika shunday fanki, u qiziqqan odamni o'ziga ohanrabodek tortib oladi, – deydi o'qituvchi Mohigul Ashurova. – Shohjahon va Anvarning ham matematika faniga qiziqishi baland. Bergan topshiriqlarimni ortig'i bilan bajaradi. Murakkab misol uchrasa, darhol yordam so'raydi. Ular singari bilimga chanqoq yoshlarning borligi o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni paydo qiladi, albatta. Bu esa muallim sifatida bizni quvontiradi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

12-aprel – Butunjahon aviatsiya va kosmonavtika kuni

TIRIK AFSONA



1961-yilning 12-aprel kuni fazogir Yuriy Gagarin insoniyat tarixida kosmosga birinchi parvozni amalga oshirdi. U «Vostok» fazoviy kemasida «Boyqo'ng'ir» kosmodromidan parvoz qilib, 1 soatu 48 daqiqada Yer sayyorasini bir marta aylanib chiqqan, Koinotga parvozi uchun unga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berildi.

BMT Bosh Assambleyasining 2011-yil 7-apreldagi rezolyutsiyasi bilan mazkur sana Butunjahon aviatsiya va kosmonavtika kuni sifatida dunyo miqyosida nishonlanib kelinmoqda.

O'zbekiston ham kosmonavtika rivojiga sezilarli hissa qo'shgan. Jumladan, Qozog'istondagi «Boyqo'ng'ir» kosmodromi qurilishida o'zbeklar faol ishtirok etishgan. U yerga respublikamizdan aloqachilar, quruvchilar va boshqa mutaxassislar yuborilgan.

Shu o'rinda fazogir Vladimir Jonibekov haqida ham to'xtalib o'tish joiz. U 1942-yil 13-mayda hozirgi Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi Iskandar qishlog'ida dunyoga kelgan. Otasi harbiy, onasi hamshira bo'lgan. «**15 yoshga kirganimda ilk bora samoga sun'iy yo'ldosh uchirildi. Shu ondayoq menda koinotga uchish orzusi paydo bo'lgandi**» – deb eslaydi V. Jonibekov o'z xotiralarida. Bo'lajak fazogir, fizika, astronomiya fanlari va rassomchilik san'atiga qiziqqan. Barcha fanlarni puxta o'zlashtirib, maktabni oltin medalga bitirgan. 1953-1958-yillari Toshkentdagi IIVga qarashli Suvorov nomidagi harbiy bilim yurtida ham o'qigan. V. Jonibekov besh marta fazoda bo'lgan (barcha parvozlarni umumiy hisoblaganda, kosmosda 145 kun 15 soat 58 daqiqaga 29 soniya) o'zbekistonlik birinchi kosmonavt hisoblanadi. U eng uzoq davom etgan – beshinchi parvozi (1985-yil 6-iyun – 26-sentabr)da «Soyuz T-13» kemasi kapitani sifatida «Salyut-7» orbital stansiyasi ustidan nazoratni tiklash uchun yuborilgan va 115 sutkada ortga qaytgan. Ta'kidlash kerakki, u ilk koinotga ko'tarilishini 1978-yil 10–16-yanvar kunlari amalga oshirgandi. Ikki bor Sovet Ittifoqi Qahramoni bo'lgan V. Jonibekovga 1985-yili «aviatsiya general-mayori» unvoni berilgan. O'z nomini manguga muhrlagan fazogir intervyularining birida O'zbekistonda mashhur bo'lgan g'o'zaning ikki xil navlari urug'ini fazoda ekib, tuproqni yorib chiqqan 20 ta urug'ni ko'ksiga solib olib tushganligini ham ta'kidlagan. 1985-1990-yillarda O'zbekiston SSR Oliy Sovetining deputati sifatida ham faoliyat yuritgan. Koinotdagi 3170-sonli kichik sayyora uning nomi bilan ataladi.

1984-yilda Toshkentdagi «Kosmonavtlar» metro bekati yonida tirik afsona Vladimir Jonibekovning haykaltarosh Yakov Shapiro tomonidan yaratilgan bronza byusti o'rnatilgan. Tabarruk 80 yoshga to'lishi munosabati bilan esa u 2022-yilda O'zbekiston Prezidentining farmoniga muvofiq «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlangan.

Bugungi kunda V. Jonibekov Rossiyaning Moskva va viloyatida istiqomat qiladi va O'zbekistonga tez-tez kelib turadi. Sirdaryo viloyati Shirin shahridagi maktablardan biriga ham Vladimir Jonibekov nomi berilgan.

Abror POYONOV tayyorladi.

Postda
Ha nocty

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchi –

kapitan Mixli SAFAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxonalar manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma № 1168.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50370 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqti – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz